

جدید

2025-yil 5-dekabr
№ 49 (101)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

JADIDLAR HALQASI




...“Qamaldilar, otib tashlandilar”, deyish oson! Ammo bu – qamalgan, otib tashlanganlarning oh-u nolalari, azob-u xo'rliklari, ularning xonavayron bo'lgan oilalari, bola-chaqalari, eridan ayrilgan ayollarning faryodlari, darbadarliklarini hamma ham bir dam ko'z oldiga keltirib, yurakdan his qila oladi, deysizmi?..

(7-sahifada o'qing).

8-DEKABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

ORZULAR RO'YOBI



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqimiz takliflari va muallifligida ishlab chiqilgan va qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi – bu nafaqat huquqiy hujjat, balki el-yurtimizning kelajakka bo'lgan ishonchi, taraqqiyot va farovonlikka intilishining yorqin ifodasidir.

Jadidlar orzu qilgan adolatli, erkin va taraqqiy etgan davlat qurish g'oyasi bugungi kunda yangi Qomusimiz timsolida o'z ro'yobini topdi.

Bu yil Konstitutsiyamizning qutlug' 33 yilligini keng nishonlaymiz.

Bosh qomusimiz milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, erishgan yutuq va marralarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Bugun yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Yangilangan Konstitutsiya milliy uyg'onish davrining yorqin namoyandalari – ma'rifatparvar jadid bobolarimizning g'oyalari va orzu-umidlariga hamohangligi bilan alohida ahamiyatlidir.

Millatning o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishi – jadidlarning buyuk orzularidan biri edi. Ular yozgan “Maromnoma”, aslida, ana shunday huquqiy hujjatga

intilishning ilk namunasi sifatida tarix solnomalariga muhrlangan. Ushbu “Maromnoma” – Turkiston Muxtoriyati hukumati tomonidan qabul qilinishi rejalashtirilgan bir dastur, siyosiy plat-

forma yoki boshqaruv tamoyillarining bayonidir.

“Maromnoma”ga ko'ra, Turkistonda tashkil etilajak xalq jumhuriyati qonun chiqaruvchi organi – parlamentiga ega bo'lishi va unga a'zolar sinfi, dini va

mazhabiga ko'ra mansubligidan qat'i nazar, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi ko'zda tutilgan.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE'RI

KONSTITUTSIYAM MENIM

O'zbekiston desam dilda gul isi,
Yurakda uyg'onar g'urur tuyg'usi.
“Maromnoma” degan jadid bobolar,
Bosh qonunim menim – baxtim qomusi!

O'tdi qonunlardan bexabar zamon,
Ajdodlar qalbida millat qayg'usi.
Qo'lmda mash'ala, boshda soyabon,
Boshpanohim menim – baxtim qomusi!

Qonun-qoidani bilgan adashmas,
Haqqini bilganga omad kulgusi.
Dono bilan hech kim masal talashmas,
Suyanch tog'im menim – baxtim qomusi!

Qonunlar tilida so'zlashamiz biz,
Bizdan ozod, obod Vatan qolg'usi.
Bizlar uchun qanot bo'lajak shaksiz
Humo qushim menim – baxtim qomusi!


Ishonch chiroq yoqsa, chekinar qayg'u,
Boshimizda yo'lchi yulduz yog'dusi.
Yangi Renessansning garovidir bu
Konstitutsiyam menim – baxtim qomusi!

Shukur LATIF

SUHBAT



TASAVVUR VA TAFAKKUR



AMERIKALIK TANIQLI JADIDSHUNOS BILAN TARJIMON MULOQOTI

Tahririyatimiz mehmoni, amerikalik taniqli tarixshunos Adib Xolid qalamiga mansub “Turkistonda jadidchilik” (The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia) ilmiy asari yaqinda nashr etilib, kitobxonlar qo'lga yetib bordi. Mahalliy arxiv manbalariga tayanib, chuqur tadqiqotlar evaziga yaratilgan kitob yurtimizning yaqin tarixi chuqur tadqiq etilgan ingliz tilidagi dastlabki risola sanaladi. Quyida muhtaram olim Adib Xolid bilan risola tarjimoni Sharifjon Ahmad suhbatini e'tiboringizga havola qilamiz.

Sharifjon Ahmad:

– Hurmatli Adib Xolid janoblari, assalomu alaykum! Avvalo, “Jadid” gazetasining ko'p ming sonli mushariyatlari hamda “Turkistonda jadidchilik” nomli kitobingiz O'zbekistonda nashr etilishida mehnatlari singgan Yoshlar ishlari agentligining “1000KITOB” loyihasi hamda “Akademnashr” jamoasi nomidan Sizga chuqur hurmatimizni izhor etamiz.

Ushbu risola ayni paytda oliy o'quv yurtlari va kutubxonalarga yetkazilib, jadid harakati tarixiga befarq bo'lmagan kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan o'qilmoqda.

Fursatdan foydalanib, shu asar va boshqa ilmiy tadqiqotlaringiz yuzasidan ayrim savollarimizni bersak.

(Davomi 2-sahifada).

IJODXONA

ILHOM MANBAYI – HAYOT

O'zbekiston xalq rassomi
Sarsenbay BAYBOSINOV bilan suhbat

– Asarlaringiz bilan yaqindan tanishish jarayonida ularda milliy ruh juda kuchli aks etganiga guvoh bo'ldik. Bu holat, albatta, ijod mahsulini xalqqa yaqinlashtiradi. San'at asarida xalq ruhiyatini ifoda etish uchun qaysi jihatlariga e'tibor berish kerak, deb o'ylaysiz?

– Chirog'im, rassom atayin xalq ruhini beray, deb mo'yalam tutmaydi. Uning qalbida o'zi o'sib-ulg'aygan zamini, nafas olgan muhiti, eshitgan kuyi, ko'rgan ranglari abadiy muhrlanib qoladi. Shu sababli ham, ijodiy ishlarimda qoraqalpoq xalqining hayoti, urf-odatlari, liboslari, qadimiy naqshlari, xalq og'zaki ijodini tasvirlab rohatlanaman. Bu mening tub ildizim, bolaligimdir. Menimcha, rassom uchun eng muhimi – ma'naviy boylik. Chunki ijodkoming kuchi uning ichki dunyosida, yurakning tozaligi va samimiyatdadir. Agar rassom o'z ishi orqali odamlarning qalbiga bir nur, ilqilik bera olsa, u o'z vazifasini ado etgan hisoblanadi. Har bir asar aslida tomoshabinga atalgan sovg'a. Uni xalq ko'rib, his qilmasa, o'ylamasa, zavqlanmasa, demak, asar o'z vazifasini bajarmagan.

Qoraqalpoq xalqining ruhida bir sokin kuch, shukuh bor. Ularning hayotga, tabiatga, mehnatga bo'lgan munosabati, hayot falsafasi men uchun doimo ilhom manbayi bo'lib keladi. Asarlarimda shu ruh, shu halollik va samimiyatni yetkazishga intilaman.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.
- ✓ Sirdaryodagi 9 ta tuman-shahar hokimlari Xitoyga borib, Sirdaryo erkin sanoat zonasidagi loyihalarni investorlarga taqdimot qilib keladi. Shuningdek, Xitoy bilan hamkorlikda Gulistonda yangi savdo-sanoat zonasi tashkil qilinadi.
- ✓ Shavkat Mirziyoyev Prezident Olimpiadasi o'yinlarining g'olib va sovrindorlari hamda barcha ishtirokchilariga tabrik yo'lladi
- ✓ Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Maxsus komissiya yig'ilishidan so'ng mutasaddilar bilan birgalikda ekologiyani zararlantirgan issiqxonalarni tekshirish bo'yicha tungi reydda ishtirok etdi.


G'ANIYON ABDURAHMONOV 100 YOSHDA

CHIN SINCHI

Tilning g'oyat mukammal va benazir muhtasham bir sinoat ekanligi kunday ravshan haqiqatdir. Bu sinoatning butun mag'z-u mohiyati, jonzotga inson degan oliy rutbani ato etmoqday azaliy va abadiy vazifasi bu sehrkor qudratda zohir bo'ladigan ming bir xil mazmun zamzamalari-yu sarhadsiz tasvir va ta'sir imkoniyatlarining ko'lamini tasavvur va taxayyul etmoqqa ko'pda inson aqli ojizlik qiladi.

Zero, ulug' Alisher Navoiy inja ta'bir ila shundog' demishlar:
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

(Davomi 6-sahifada).





ORZULAR RO‘YOBI

Boshlanishi 1-sahifada.

Saylovda shariat doirasida xotin-qizlar ham ishtirok qilishlari mumkin, deyilgan.

Jadidlarning bosh g'oyalariidan bo'lgan ta'limni rivojlantirish, zamonaviy maktablar ochish masalasi ham "Maromnoma"da alohida o'rin tutgan. Iqtisodni, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali xalqning turmush darajasini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Xalqning davlat boshqaruvida ishtirok etishi, saylovlar orqali o'z vakillarini saylash huquqi kabi demokratik tamoyillar ham unda o'z aksini topgan.

"Maromnoma" millatning o'z taqdirini o'zi belgilash, huquqiy davlat qurishga bo'lgan asriy intilishlarini aks ettirgan muhim tarixiy hujjat sifatida biz uchun qadrlidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning asosiy maqsadi – O'zbekistonni ijtimoiy, huquqiy va dunyoviy davlat sifatida mustahkamlash, inson qadrini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish va har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini so'zsiz ta'minlashdan iborat. Konstitutsiya inson qadrini oliy qadriyat deb biladi. Unda inson qadri, huquq va erkinliklari hamma narsadan ustunligi prinsipi mustahkamlab qo'yilgan. Davlatning barcha faoliyati inson va uning manfaatlariga qaratilgani qat'iy belgilangan.

Konstitutsiyaga ko'ra, davlat aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, fuqarolarning uy-joy, mehnat, tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqlarini kafolatlash majburiyatini zimmasiga oladi. Sud hokimiyatining mustaqilligi, adolatli sud qarorlari, har kimning malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlash orqali qonun ustuvorligini ta'minlaydi. O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi belgilab qo'yilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'sini yanada oshirib, ichki siyosati insonparvarlik va taraqqiyotga yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi xalqimiz hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda har bir fuqaroning haq-huquq va manfaatlar har qachongidan ham chuqurroq va atroflicha himoyalab qo'yilgan.

Davlat kam ta'minlangan, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa zaif qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatishni kafolatlaydi. Pensiya, nafaqalarining miqdori qonun bilan belgilanadi. Har kim tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Davlat tibbiy xizmatning bepul shakllarini kafolatlaydi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim bepuldir. Oliy ta'limning ham davlat grantlari asosida bepul olinishi kafolatlanadi. Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning uy-joyli bo'lishiga ko'maklashadi va uy-joy qurilishini rag'batlantiradi.

Har kim mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalash huquqiga ega.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlanadi, bu esa ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hech kim sudning qarorisiz uy-joyidan mahrum etilmaydi. Mulk huquqi

kafolatlanadi va davlat tomonidan himoya qilinadi. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Bu ekologik muammolarning oldini olish va sog'lom hayot kechirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari kengaytirildi, ularga davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari yaratildi. Erkak va ayollarning teng huquqliligi Konstitutsiyaviy darajada kafolatlandi. Bu huquqlarning barchasi jadidlar orzu qilgan jamiyatda yashayotganimizni anglatadi.

Jadidlar o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini chuqur tahlil qilgan holda, mamlakatning qoloqligi va xalqning qashshoqligiga chek qo'yishning yagona yo'li – bu adolatli boshqaruv, ilg'or ta'lim tizimi va iqtisodiy mustaqillik ekanini ta'kidlagan. Nafaqat bilim tarqatish, balki xalqni o'z huquqlarini anglashga, o'z taqdiriga befarq bo'lmasslikka da'vat etgan. Ular bunday davlatning poydevori xalqning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi, davlat boshqaruvini tartibga soluvchi oliy qonun – Qomus bo'lishi kerakligini teran anglab yetganlar.

Jadidlar harakatining asosiy o'zagi ta'lim va ma'rifat edi. Ular "jaholatdan – nurga", "qoloqlikdan – taraqqiyotga" o'tishning yagona yo'li ilm-ma'rifat ekanini qat'iy uqtirgan. Usuli jadid maktablarini ochish, dunyoviy fanlarni o'rganish, xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash – ularning dasturiy maqsadlari edi. Jadidlar millatning kelajagi ilmiy va ma'rifati yoshlar qo'lida deb bilgan.

Yangi O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyada ham ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. Unda "Har kim sifatlil ta'lim olish huquqiga ega"ligi mustahkamlab qo'yilgan. Davlatning umumta'lim maktablarini bepul qilish, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash kabi majburiyatlari belgilangan.

Konstitutsiyaning 50-moddasida "davlat jamiyatning ijtimoiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi", deya ta'kidlanishi jadidlar g'oyalarga g'oyat uyg'un va hamohangdir.

Jadidlar o'z davrida qonun ustuvorligi, barchaning qonun oldida tengligi va haqqoniy sudlov tamoyillarini orzu qilgan bo'lsa, Yangi O'zbekistonda "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir", degan norma Konstitutsiyaning ruhini belgilaydi. Jadidlar milliy til, madaniyat, tarix va urf-odatlarini asrash, milliy ongini uyg'otishga katta e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, millat o'zligini anglamasdan turib, taraqqiy etolmaydi.

Yangilangan Konstitutsiyada o'zbek tilining davlat tili maqomi, uning himoyasi va rivojlanishi, "O'zbekistonning madaniy merosi davlat himoyasida" ekanini, fuqarolarning milliy va madaniy o'zligini saqlash huquqi kafolatlangan.

Konstitutsiya – har birimizning Qomusimiz, uning har bir normasiga amal qilish, uni asrab-avaylash va unda belgilangan qadriyatlar ruhida yashash – har bir o'zbekistonlikning muqaddas burchidir.

Jamoliddin BADALOV

TASAVVUR VA TAFAKKUR

Boshlanishi 1-sahifada.

Adib Xolid:

– Vaalaykum assalom! Men ham, o'z navbatida, sizlarga ushbu sa'y-harakatlaringiz uchun tashakkurimni bildirishdan mamnunman. Marhamat.

Sharifjon Ahmad:

– Siz Pokistonning Lohur shahrida tug'ilib o'sgansiz. Pokiston esa Markaziy Osiyo mintaqasi bilan madaniy rishtalariga ko'ra tarixan bog'langan yurt. Turkistondagi siyosiy va madaniy evrilishlar mavzusiga qiziqishingiz shu jihat, ya'ni yaxlit bir mintaqaga doxillik hissi bilan bog'liqlik yoki boshqa sabablari ham bormi?

Adib Xolid:

– Albatta, siz aytayotgan holat bu mintaqaga qiziqishlarim debochasi bo'lgan. Avvallari bizning maktab darsliklarimizda Zahiriddin Muhammad Bobur, Farg'ona-yu Andijon ko'p tilga olinar, ammo asta-sekin mavzular o'zgarib, bular esdan chiqqa boshladi. Sovuq urush hukmron bo'lgan 1970–1980-yillarda O'zbekiston xuddi o'zga sayyoradagi olis bir joyday tasavvur qilinar, u yurtga sayohat qilish tugul, shundoqqina yonimizda joylashgan bu mintaqaning shu kunlardagi hayoti haqida tuzuk-quruq ma'lumot topish ham mahol edi. O'zbekiston, va umuman, O'rta Osiyoning bizga shunchalar yaqin, ammo ayni paytda qo'l yetmas va olis, bizga shunchalar o'xshash, ammo ayni damda shu qadar farqli ekani – aynan shu holat mening bu mintaqaga ayrica qiziqishimga bois bo'lgan, deb ayta olaman.

Sharifjon Ahmad:

– Ilk bor 1998-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Turkistonda jadidchilik" kitobi dastlabki yirik tadqiqotlaringiz jamlanmasi hisoblanadi. Bu kitobni yaratish yo'lida o'zbek, turk va rus tillarini o'rganib, mahalliy arxivlarda uzoq izlanishlar olib borganingizdan xabardormiz. O'zbekistonga birinchi marta sovet tuzumi hali oyoqda mustahkam turgan bir davrda kelgansiz. O'sha paytlarda mavzuingiz bo'yicha bu yerlarda tadqiqot olib borishingiz qiyin bo'lmaganmi?

Adib Xolid:

– To'g'ri aytдингiz, men O'zbekistonga chindan ham ilk bor 1985-yili kelganman. Ammo u paytlarda yosh edim, biror tadqiqot olib borishga yaroqli tajriba va bilimim yetarli emasdi hali. "Sputnik" deb nomlangan xalqaro yoshlar sayyohlik tashkiloti yordamida O'zbekistonda bor-yo'g'i 10 kun bo'lgan esamda, sovetlar davridagi hayotning ozmi-ko'p jihatlari bilan tanisha olganimdan mamnunman. Oradan olti yil o'tib, ya'ni 1991-yilda dastlabki ilmiy-tadqiqot safari bilan yurtigingizga yana kelishga muvaffaq bo'ldim. Bu paytda vaziyat ancha o'zgargan, ammo o'zim qo'l urishga bel bog'lagan mavzu hamon yangi va dolzarb edi.

Sharifjon Ahmad:

– Endi bevosita kitobingizga murojaat qilsak. Unda "Jadidchilik sarchashmasi" deb nomlangan uchinchi bob quyidagi tasvirlar bilan boshlanadi: "1899-yili yigirma besh yashar yigit Samarqandda Zakaspiy temir yo'liga qarashli poyezdga o'tirib, Istanbul, Qohira va Makkani ko'zlagancha Zakavkaze sari yo'lga otlandi. ...O'ziga hali notanish yurtlar bo'yab kezar ekan, Behbudiy Usmonlilar imperiyasi va Misrda keng quloq yoza boshlagan xalq ta'limi taraqqiyotini zo'r qiziqish bilan kuzatar, bu o'lkalarda madaniy islohotlar boshida turgan tanikli arboblar bilan uchrashib, hamsuhbat bo'lar edi". Bundan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrning musulmon ziyolilari, chor hukumati istilosida o'sha ham, boshqa yurtlarga sayohat qilib, maslakdoshlari bilan yaqin muloqotlarda bo'lgan. Boshqa yurtlardagi islohotlardan ta'sirlangan Turkiston jadidlari o'lkada o'ziga xos, ayrica yo'ldan ketdimi yoki umumiy oqimning uzviy bir bo'lagi sifatida faoliyat yuritdimi? Sizningcha, Turkiston jadid harakatining o'sha davr musulmon olamidagi boshqa islohotchilik harakatlaridan muhim farqlari nimada edi?

Adib Xolid:

– U paytlarda musulmon modernizmi butun islom olamida keng quloq yoza boshlagandi. Matbuot va telegraf, harakatlanishni qulaylashtirgan temir yo'llar va dengiz yo'llari rivojlanishi tufayli ham bunday g'oyalar ko'plab musulmon yurtlari o'rtasida erkin yoyilayotgan zamon edi. Siz eslab o'tgan Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati aynan mana shu hodisaning yorqin misoli bo'la

oladi. Shu bilan birga, bu oydinlarning aksari mahalliy muhit doirasida ish olib borgan. Ularning hammasida o'ziga yarasha tashvish-muammolar bor edi, ular siyosiy cheklavlar tufayli haminqadar imkonlar me'yorida faoliyat yuritdi. Shu sababli ham, musulmon modernist islohotchiligi bir butun va yaxlit hodisa, deb ayta olmaymiz.

Turkiston jadidlari mustamlaka sharoitida faoliyat olib borgan bo'lsa-da, bu tizim Britaniya imperiyasi Hindiston yoki Misrda o'rnatgan mustamlakachilik tartibidan tubdan farqlanar, hatto shundayki, Turkistondagi siyosiy vaziyat Volgabo'yi va Ural bo'lgasi muhitidan ham bo'lakcha edi. Turkiston jadidlari faoliyatidagi asosiy o'ziga xoslikni boshlang'ich ta'limni tubdan isloh etishga intilishlarida ko'ramizki, bunday jihatni musulmonlar Hindistoni yoki Misrda kuzatmaymiz. Turkiston jadidlarini boshqalardan ajratib turuvchi ikkinchi muhim jihat – ular turkiylikka (aslo panturkizmga emas) maftun bo'ldi va bu maftunlik, ayniqsa, 1917-yildan so'ng yaqqol ko'zga tashlandi.

Sharifjon Ahmad:

– Bir tarafdan, jadid harakati mustamlaka siyosatining mahsul bo'lgan, boshqa tomondan esa Turkiston musulmon jamiyatining faqat o'zigagina xos tadjriy taraqqiyoti samarasi edi, deyaish mumkinmi? Bu qabildagi ikki xil qarashni qay tarzda birlashtirish mumkin?

Adib Xolid:

– Jadid harakati mustamlaka siyosatining mahsul emas, balki aynan mana shu siyosatga javob edi. Bu harakat Turkiston musulmon jamiyatining yangicha sharoitdagi madaniy taraqqiyoti natijasi o'laroq yuzaga keldi. Mazkur sharoit O'rta Osiyo sarhadlaridan tashqaridagi boshqa musulmon jamiyatlari bilan boshlangan yangi munosabat va muloqotlarni o'zida mujassam etgan edi. Usmonlilar saltanati Turkiston jadidlari uchun, aftidan, bu singari muloqotlarning favqulodda muhim manzili ediki, usmonlilar andozasi ne qadar qadri va jozibali bo'lganini, ayniqsa, Buxoro misolida yaqqol ko'ra olamiz.

Sharifjon Ahmad:

– Turkiston jadidlari faoliyatini o'rgangan ba'zi olimlar bu voqelikni milliy ozodlik kurashiga debocha bo'lgan mafkura va qamrovli harakat, deb baholashga moyil bo'lsa, yana boshqalari jadidlarni islohotchilik munozaralaridan nariga o'tmagan sof madaniy loyiha sifatida ko'radi. Agar birinchi qarashni qabul qilsak, nega ayrim jadidlar Qo'qon muxtoriyatini jonbozlik bilan yoqlashdan tiyilib, undan keyingi "bosmachilik" harakatiga ham katta shubha bilan qaradi? Yoki ularni madaniy loyiha ishtirokchilari debgina qabul qilsak, bu "beozor" guruhni sovetlar tuzumi keyinroq nima sababdan baribir yoppasiga (ayrimlarigina istisno) qat'iom qildi? Tafvutli bu ikki yondashuvni ham o'zaro murosaga keltiruvchi asoslar bormi, sizningcha?

Adib Xolid:

– Jadid harakatining turli davrlarini farqlashda ehtiyotkor bo'lishimiz lozim. Ma'lumki, 1917-yil inqilobi jamiyatda keskin burilish yasagan. Inqilobga qadar bo'lgan jamiyatda davlat Islomga nisbatan toqatli munosabatda bo'lsa-da, mahalliy aholining siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini istisno qilgan. 1917-yildan keyin esa vaziyat tamomila o'zgardi va endi ko'plab jadidlar kelajakka umid bog'lab, inqilob tufayli yuzaga kelgan imkoniyatlarni ishtiyok bilan qarshi oldi. Ular faoliyatida shiddatkorlik paydo bo'ldi, ayrimlari hatto siyosiy hokimiyat jilovini tutishga (ayniqsa, Buxoroda) muvaffaq bo'ldi.

Jadid harakati yaxlit va turg'un mafkura emasdi. Yangicha sharoit va imkoniyatlar paydo bo'lishi yoki bular yo'qolishi barobarida bu mafkura ham evrilishlarga uchrab, o'zgarib turdi. Qo'qon (Turkiston) muxtoriyati esa, ko'p jihatdan, ko'zda tutilmagan tasodifiy

voqealar mahsul ediki, bir qancha omillar qatori harbiy qudratga ham ega bo'lmagan jadidlar bu tuzilmani yoqlay yoki muhofazalay olmasligi ayon edi. Amalda butun boshli davlat parokandalikka yuz tutayotgan u yillar ayovsiz bir davrligi ma'lumingiz. "Bosmachilik" harakatiga ham shubha bilan qaraganlariga kelsak, jadidlar bu guruhning jamiyat, taraqqiyot, o'zgarish va yangilanishlar borasidagi ziddiyatli qarashlarini qabul qilmas, buning ustiga, har ikkisi jamiyatning boshqa-boshqa qatlami namoyandalari edi.

Vaqt o'tgan sayin sovetlarning jadidlarga nisbatan g'animgli ham kuchayib bordi. Oyoqqa turib olgan sovet hokimiyati, ayniqsa, 1930-yillarda, siyosiy maydonda yakkahokimlikni saqlab qolishni hayotiy zarurat deb bildi va mafkuraviy jihatdan shubhali unsurlarni yo'qotish payiga tushdi.

Sharifjon Ahmad:

– "Turkistonda jadidchilik" kitobi ilk bor nashr etilganidan buyon 27 yil o'tibdi. Asarning muqaddima qismida o'tgan asrning dastlabki davri tadqiq etilgan jiddiy risolalar kamyoblighi, borlari ham masalaga asosan O'rta Osiyoni tushuniksiz sharqiy ekzotika tarzida ko'rishga moyil sovet fani prizmasi orqali yondashganiga e'tibor qaratib, o'zingiz qo'l urgan ushbu tadqiqot yordamida o'sha saktaliklarni tuzatib, bu boradagi muvozanatni to'g'rilashga uringaningizni bildirasiz. Ushbu kitobdan so'ng yana bir necha risolalar yaratdingiz. Umuman olganda, G'arb ilmiy doiralarda mazkur mintaq, xususan, O'zbekiston tarixini tizimli o'rganish borasida sezilarli siljishlar sodir bo'ldimi yoki bu mavzu hamon tor ilmiy doiralarning xos qiziqish obyekti sifatidagina qolmoqdam?

Adib Xolid:

– Ha, shunday, kitob nashr qilinganidan buyon o'tgan 27 yil davomida ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu kitob chindan ham O'rta Osiyoning eng yangi tarixiga doir ingliz tilida bitilgan va arxiv manbalariga asoslangan ilk risola edi. Garchand, ushbu muvotiqani ekzotiklashtirib, birgina rus tilidagi manbalarga tayanib yozilgan ishlar hali-hamon paydarpay chop qilinayotgan bo'lsa-da, umumiy holat endi baribir boshqacha. Ingliz, fransuz, olmon, italyan, shuningdek, yapon tilida nashr qilingan hamda arxiv va matbuot manbalari bilan jiddiy shug'ullanish natijasida yaratilgan ko'plab teran tadqiqotlar nashr etilgani quvonarli holdir. Ammo bu, Markaziy Osiyo tarixi G'arbda keng miqyosda ommalashdi, degani emas. Bu hamon tor, shu bilan birga, salmoqli yutuqlarga erishgan xos sohaligicha qolmoqda.

Sharifjon Ahmad:

– Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda jadidlar merosiga qizg'in qiziqish ham, keyinroq mo'tadil munosabatlar ham kuzatildi. Yaqin yillardan buyon esa bu borada yana ko'tarilish pallasiga guvoh bo'lyapmiz. Bugun Markaziy Osiyo respublikalari ko'p sohalarda o'zaro yaqinlashuvga intilayotgan bir davrda, bu hududni yaxlit Turkiston o'laroq anglagan jadidlarning g'oya va qarashlari mintaq uchun qanchalik muhim?

Adib Xolid:

– To'g'ri aytasiz, O'zbekistonda jadidshunoslik bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Hozirgi vaziyat birgina Markaziy Osiyo olimlarining o'zaro hamkorligi emas, ularning xorijiy mamlakatlardagi boshqa hammaslamlari bilan ilmiy aloqalariga ham sharoit yaratdi. Bu boradagi erkinlik to'xtab qolmasdan, o'zaro hamkorligimiz yanada chuqurlashuvi, arxivlar eshiklari esa yana ham kengroq ochilishidan umidimiz katta.

Sharifjon Ahmad:

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.

Adib Xolid:

– Suhbatdan kamina ham mamnun bo'ldim.



Boshlanishi 1-sahifada.

Menimcha, san'at orqali xalq ruhini ifodalash – bu faqat estetik masala emas, balki ma'naviy burchdir. Rassom Vatadini sevmasa, xalqning og'rig'ini, quvonchini his qilmasa, u hech qachon chinakam asar yaratolmaydi. Shu bois, suratlarda o'tmish bilan bugunni, dard bilan orzuni, kechmish bilan kelajakni birlashtirishga harakat qilaman. Ijodkor uchun eng katta mukofot – xalq yuragiga yo'l topish.

– **Kartinalaringizda rang va faktura juda muhim rol o'ynaydi...**

– Men uchun rang – bu so'z, faktura esa uning ohangi.

Rassom uchun ranglar – bu his-tuyg'ularning tili, ruhning tovushi. Har bir rangda bir ma'no, bir ramz yashiringan. Bo'yoqlar orqali faqat shakl emas, balki hisni, kayfiyatni, hayotning o'zini ifodalashga intilaman. Faktura esa, asarga hayot baxsh etuvchi kuch. U bo'yoqlarning chuqurligi, harakati, energiyasini beradi. Fakturasiz rasm jimjit bo'ladi, tovushsiz qoladi. Men faktura orqali asarni "nafas oldiraman", jonlantiraman. Demakki, faktura men uchun texnika emas, balki tuyg'u ifodasi, bo'yoqning o'z ovozi.

Bu uslubni o'zim topganman, u menga erkinlik beradi. Chunki ijodda erkinlik bo'lmasa, samimiyat ham bo'lmaydi. Ba'zida ilhom uzoq kuttiradi. Ammo shunday lahzalar bo'ladiki, hammasi bir paytda yurakdan otilib chiqadi, ranglar o'z joyini topadi, shakllar bir-biriga ulanadi, bo'yoqlar go'yo qo'lni emas, yurakni boshqaradi. Ana shunday onlarda haqiqiy san'at asari dunyoga keladi.

– **Siz ko'proq nimadan ilhomlanasiz?**

– Hayotning o'zidan. Rassom uchun eng muhimi – hayotni sevis, uni his etish va har lahzadan zavqlana bilishdir. Bolaligimda cho'l manzaralarini, shamolning qumni qanday silashini, daryo to'qinlarining so'zsiz musiqasini, quyoshning ufqqa singib borishini kuzatardim. Bu manzaralar qalbmida o'chmas iz qoldirgan. Bugun esa o'sha bolalik xotiralarini, o'sha rang va tovushlar asarlarimda qayta tiriladi. Chunki tabiat – abadiy darslik, unda rang, shakl va tuyg'u uyg'unligi mukammal aks etgan.

Shu o'rinda Orol dengizi haqida ham to'xtalishni zarur deb bilaman. Sababi, u ham har bir ijodkorga turlicha ilhom baxsh etadi. Bugun uning suv hududi o'rinda tuz qatlamlari, kanonlar va qumqol vodiylar paydo bo'lganini ko'ramiz. Rassom ko'zi bilan qaraganda, bu manzaralar tabiatning o'zi yaratgan ulkan mo'jizalardir. Koshki edi, bu go'zalliklar haqiqatan ham tabiatning in'omi bo'lganida...

Ilgari suv bilan to'lgan bu maskanda hozir yerning tabiiy relyefi, dengiz tubining qoldiqlarini ko'rib, kishi beixtiyor o'yg'a toladi. Ayrim joylarda 15–20 metr balandlikdagi qoyalar va jarliklar ko'zga tashlanadi. Quyiroqqa tushsangiz, o'ta



ILHOM MANBAYI – HAYOT

qiziqarli relyef shakllari, tabiiy daralar va tuz bilan qoplangan vodiylar namoyon bo'ladi. Bu manzaralar inson ko'zini quvlatish bilan birga, qalbda sog'inch uyg'otadi – avvalgi dengiz ko'rinishiga, uning to'qinlariga bo'lgan sog'inch.

Odamlararo qarang turgani bilan bitib qolmaydi, unga malham bosishi va tuzalishga harakat qilmog'i kerak. Bugun Orolning qurigan tubi "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida yashil "dengiz"ga aylanayotgani kishiga tasmin beradi. Ko'chat shaklida ekilgan, urug'i sepiyatgan o'simliklar gurkirab, Orolning jarohatiga bog'langan yashil tasmaga aylandi. Niyatimiz shuki, bir kuni dengiz to'ladi, ana shunda bu butalar suv ostida sollarib turadi...

Men uchun tabiat va inson ruhi bir-biridan ajralmas. Chunki inson – tabiatning bir bo'lgi, uning davomidir. Shu bois, asarlarimda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni, ularning bir-biriga ta'sirini ifodalashga intilaman.

– **Bugungi kunda Jollibay Izentayev nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati rang-tasvir fani o'qituvchisi sifatida yosh avlodga mahorat sirlarini o'rgatib kelmoqdasiz. "O'zi ustoz bo'lar ustoz ko'rganlar", deb yozadi shoir. Ustozlaringiz haqida gapirib bersangiz?**

– Ustozlar haqida gap ketganda, O'rol Tansiqboyev, Qoraxon Qoriyev kabi san'at ustalarini ayrica ehtirom bilan tilga olaman. Ular o'z davrida Turkiston avangard san'atining paydevorini qo'yg'an, o'z uslubini, o'z falsafasini yaratgan rassomlardan edi. Tansiqboyevning ishlarida tabiatning ovozi yurak urishdek his qilish mumkin. Qoriyev ijodida esa milliylik bilan zamonaviylikning betakror uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Bu zotlar nafaqat san'atda, balki

hayotda ham bizga o'rnak bo'lishgan. Bugun Joldasbek Quttimuratov, Islom Jaksibayev, Muzaffar Ishanov, Olga Joldasova, Vasilii Logutov kabi san'atkorlar ustozlar yo'lini munosib davom ettirmoqda, deb o'ylayman.

Rassomlikda an'ana juda muhim. Bugun yangi avlod san'atkorlari ham ana shu ustozlar yo'lini davom ettirmoqda. Ularning ijodida ham o'tmish merosiga hurmat va zamonaviy ifoda uyg'unlashganini ko'rib, faxrlanaman.

– **Gap o'z-o'zidan hozirgi yoshlarga ulandi. Yutuqlaringiz o'zimizniki. Shu o'rinda yosh rassomlarga nimalar yetishmayotganiga to'xtalib o'tsangiz.**

– Menimcha, eng avvalo, sabr, izchillik va mehnatsevarlik yetishmayapti. Bugungi avlod bizdan-da iste'dodli, zamonaviy fikrlaydi, texnologiyalarni yaxshi biladi. Ammo shoshqaloqligi bor, natijani tezroq ko'rishni istaydi. San'atda shoshish yaramaydi, bu yo'l pog'onama-pog'ona, asta-sekinlik bilan bosib o'tiladigan yo'ldir.

Yoshlarga maslahatim: ko'proq o'qisin, jahon san'ati tendensiyalarini kuzatsin, havoyi kibni chetga surib, arzon-garov shuhratga uchmay va tez kelib-ketadigan boylik ketidan quvmay, kamtarlik bilan ustozlardan saboq olsin. Ustoz faqat yo'l ko'rsatuvchi emas, ruhiy tayanch hamdir. Men doim aytaman: rassom bir umr shogird bo'lib qoladi. Chunki o'rganishning, izlanishning chekchegarasi yo'q. Har yangi kun – yangi dars, har yangi asar – yangi sinov. Asl rassomlik esa bu shon-shuhrat uchun emas, balki ichki ehtiyoj uchun ijod qilishdir. Shu bois yoshlar, avvalo, o'zini tinglashni, o'z ruhini eshitishni o'rganishi kerak.

– **Ayni paytda O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosisiz. Akademik sifatida rassomlikda an'anaviy va zamonaviy**

uslublar o'rtasidagi munosabatlarga fikr bildirsangiz. Tasviriy san'atni faqat xoslar emas, keng xalq ommasi ham tushunishi uchun nimalar qilish kerak, deb o'ylaysiz?

– Bu juda nozik savol, ammo har bir rassom uchun muhim masala. San'at doimo o'sishda, harakatda. Vaqt o'tgan sari yangi texnologiyalar, yangi ifoda vositalari, yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Ammo shu yangilanishlar ichida ildizni unutmaslik, o'z milliy ruhi, o'z zamini bilan bog'liqligini yo'qotmaslik – rassomning eng katta mas'uliyati. Men uchun milliy ruh – bu tayanch, zamonaviylik esa ifoda vositasi. Ikki bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Chunki san'atda faqat yangilik izlab, o'tmishni unutish – bu ildizsiz daraxtga o'xshaydi. Ammo faqat an'anaga tayanib, yangilikdan qochish oqibatida rassom to'xtab qolishi ham hech gap emas. Rassom ana shu ikki qutb o'rtasida muvozanat topa bilishi kerak.

Menimcha, rassomning eng muhim vazifasi insonni tafakkurga undash, ruhlanirish va hayotning ichki go'zalligini eslatishdir. Agar rassom yaratgan asar tomoshabinning qalbiga yetib borsa, uni o'ylantirsa, hayotga boshqacha nazar bilan qarashga undasa, demak, u o'z burchini ado etgan bo'ladi. Ijodkor uchun eng ulug' mukofot – bu tomoshabinning samimiy rahmati, chin dildan aytilgan e'tirofi. Chunki san'at – yurakdan chiqib, yurakka yetadigan nozik tuyg'u.

Biroq bugun dunyoda shunday jarayon ketyaptiki, ko'pchilik muzeylar, san'at ko'rgazmalariga borishni istamaydi. Bu manzillar go'yoki vaqtni mazmunli sarflash uchun munosib emas. To'g'ri, hamma ham san'atni chuqur tushunvermaydi, ammo go'zallikni his qilish uchun uni, albatta, anglash shart emas. Har qanday go'zallik insonni eozulikka yetaklaydi. San'atni to'la tushunmasak ham undan zavq olish, ruhlanish mumkin. Masalan, bir joyda nihoyatda chiroyli gulni ko'rib qoldingiz: undan bahra olasizmi yo uning nomi, vatani, turi haqida bilmaganingiz uchun ko'z yumib o'tib ketasizmi?

San'atdan xabardorlik ziyolilik, madaniylik belgilaridan biri. Shu bois, o'zimiz uchun bo'lmasa ham, farzandlarimiz, kelajagimiz uchun san'at bilan hamnafas bo'lishimiz kerak.

– **Mustaqilligimizning 34 yilligi arafasida "O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi" faxriy unvoni bilan taqdirlandingiz. Yuksak unvon bilan tahriyatimiz nomidan muvorbod etamiz! Ushbu manzilgacha bosib o'tilgan yo'l va hayajoningiz bilan bo'lishsangiz.**

– Rahmat. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ijodkorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar ko'lami, erkinlik va imkoniyatlar aqlni shoshiradi. Xususan, bozor iqtisodiyoti davrida san'atga, ayniqsa, tasviriy san'atga berilayotgan e'tibor – bu faqat moddiy qo'llab-quvvatlash emas, balki ma'naviy ishonch, ijodkor shaxsiga chuqur hurmat ramzidir.

Eng avvalo, bugun rassom o'z fikrini erkin ifoda eta oladi. San'at uchun eng katta yutuq shu. Chunki erkinliksiz ilhom bo'lmaydi. Endi rassom o'z g'oyasini faqat bo'yoq yoki shakl bilan emas, ichki kechinma, ramz, timsollar orqali ifoda etishga jur'at topmoqda. Bu esa ijodda yangicha ohang, yangicha qarash, yangicha uslubni tug'dirmoqda.

Bugungi islohotlar natijasida san'at olamining eshiklari tobora keng ochilmoqda. Xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish, xorijiy rassomlar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazish, turli mamlakatlarda o'z ishlarini namoyish etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilayotgan sharoit va berilayotgan e'tibor rassomlarga ilhom bag'ishlamoqda. Ko'rgazmalar, tanlovlar, ijodiy uyushmalar, xalqaro loyihalar nafaqat ijodga, balki o'zni topishga, xalq bilan yanada yaqinlashishga yordam beradi. Menimcha, ijodkor uchun eng katta mukofot – bu ishonch va e'tirofdir. San'atkor o'z mehnatining qadriini his qilgan joyda fidoyilik bilan ijod qiladi. Biz san'at orqali nafaqat chiroyli manzaralar chizamiz, balki xalq ruhini, zamon ohangi, xalqning orzularini ranglar orqali ifoda etamiz.

"O'zbekiston xalq rassomi" unvoniga sazovor bo'lganim haqidagi xabarni eshitgan onimni hayotimdagi unutilmas dahlgarlar sifatida eslayman. Bunday e'tirof umrini san'atga bag'ishlagan inson mehnatining eng oliy mukofotidir. Bu unvonni men faqat o'zimning emas, balki xalqim, millatim, san'atimiz tarixining e'tirofi deb bilaman. Rassom hech qachon yolg'iz ijod qilmaydi, uning ortida o'z yurti, tili, madaniyati, zamon ruhi turadi. Men o'zimni shu ruh bilan bir butun his qilaman. Shu bois, bu mukofot menga quvonch, ayni paytda katta mas'uliyat yukladi.

– **Sarsenbay og'a, samimiy suhbatingiz uchun tashakkur! Ijodingizga baraka tilaymiz, mo'yalamingiz yaratayotgan mo'jizalar soni ortaversin!**

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.

O'Y

ADABIYOT YASHASIN! YASHASIN ADABIYOT!

Millat ma'naviyati va intellektual salohiyati uchun mas'uliyat qalam ahli – shoir va yozuvchilar zimmasiga ham tushadi. Ammo bugungi globalashuv, raqamlashuv, ijtimoiy tarmoqlar hukmronlik qilayotgan sharoitda faqatgina adabiyot vakillarining harakati bilan ma'naviyatni ko'tarib bo'ladimi? Keling, bu savolga javob izlab, real voqelikni kuzataylik.

INTERNET OMMA-SIGA ERGASHAYOTGAN QALAM-LAR

Ochig'i, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan ko'pgina kontentlar urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga yot. Kattalar ham, bolalar ham bu maydonda bir xil darajada "oziqlanayotgan"ni ko'ramiz. Muammo ijtimoiy tarmoqda emas, balki uning imkoniyatidan qanday foydalanishda... Taassufki, ijodkorlarning ko'pchiligi "populyar" mavzular orqali o'quvchi to'plashga harakat qilmoqda. Aksariyat qalamkashlar uchun ijtimoiy tarmoqlar "kunlik gazeta" vazifasini o'tayotgani ham bor gap. Ko'pchilik ommaga tanilish, shuhratga erishish uchun internet ommasiga ergashmoqda. Bu ma'naviy inqirozning asosiy sababi nimada? Nega kutubxonalar, kitob do'konlari, teatr va kino zallargacha bormay qo'ydi?

Biz texnologiyalar asrida yashayapmiz. Bugungi kunda onlayn kitobxonlar soni tobora oshib borayotganini inkor qilib bo'lmaydi. Har qanday jamiyatda adabiyotga muhtoj qatlam bor va u hozirgi kunda internetda faol. Xalqaro festivallar, she'riyat kechalarida ishtirok etar ekanman, shunga guvoh bo'ldim: hozir ko'pchilik kitobxonlar adabiyotni aynan onlayn o'qiydi. Demak, yoshlarga internetda ham yaxshi kitoblarni tanlashda, topishda yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz shart. Axir, internet bugun axborot maydoni ekan bilan birga, tarbiya vositasiga ham aylanib ulgurani rost-ku.

Hozir sun'iy intellekt hayotimizga jadal kirib keldi. Bu jarayon shunchalik tezki, u texnik



sahalar barobarida adabiyot, psixologiya, ta'lim, jurnalistikagacha ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'p insonlar sun'iy intellektga dardini aytaypti, she'r yozib berishni so'rayapti, u bilan fikrlashyapti.

Demak, inson so'zga muhtoj. Bu ehtiyoj adabiyotga intilish yangicha shaklda namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Shunisi aniqki, sun'iy intellekt inson fikri, tuyg'usi, sevinch va alamlarini ifoda etadigan haqiqiy badiiy asar yaratolmaydi. Uning yozgani texnik jihatdan bexato bo'lishi mumkin, ammo unda jonli his-tuyg'ular bo'lmaydi. Shuning uchun ham, bugungi yozuvchi va shoirlar ana shunday yasama yozuvlardan yuksak, qalbga yetadigan haqiqiy asarlar yaratishi kerak.

Kechagina qog'oz kitoblar o'rni elektron kitoblar egallayotganidan xavotirlanar edik. Bugun esa sun'iy intellekt istalgan paytda "yozuvchi" yasab berayotgan davrda yashayapmiz. Shunday bir paytda biz adabiyotni, haqiqiy badiiy so'zni, tarbiya kuchini yo'qotmasligimiz zarur. Buni internetdan qo'rqandek qo'rqamadan, aksincha, unda yaxshi asarlar, targ'ibot materiallari, kitob tavsiyalarini ko'paytirish orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Internet va zamonaviy texnologiyalar bizga imkoniyat beryapti.

Masalan, yurtimizning uzoq tumanlari, chekka qishloqlarida kitob do'konlari yo'q. Kitoblar yoki elektron kitob o'qish qurilmalari bo'lmagan joylarda ham smartfon bor. Shunday vaziyatda millionlab foydalanuvchilar uchun bepul, qulay, sifatli elektron kutubxonalarni ishga tushirish lozim bo'ladi. Bu millat savodini, ta'lim sifatini, tafakkur va ma'naviyatni tiklashning zamonaviy va eng tezkor yo'lidir. Ming bor takrorlasak arziydi: yoshlar qayerda bo'lsa, adabiyot ham o'sha yerda bo'lishi kerak.

KUTUBXONAMIZ HAM, O'QUVCHIMIZ HAM KAM

Davlat statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston bo'ylab jami 402 ta davlat kutubxonasi faoliyat yuritgan. 37 millionlik aholi uchun bu raqam achinarli darajada kam. Lekin bugungi real holatga qaraydigan bo'lsak, insonlarni kutubxonaga borishga majburlash bilan muammoga yechim topib bo'lmaydi. Afsuski, internet tarmog'ida o'zbek adabiyoti, san'ati, madaniyati haqida muntazam maqolalar, kitoblar sharhi, tahlillar chiqaradigan platformalar sanoqli.

Yaqinda Toshkent univermagi yonidagi kitob do'koniga borib, u yerdagi kitoblarni ko'rib havasimiz keldi. Katalogga binoan kitoblar nafaqat mavzusiga, balki o'sha asar mansub bo'lgan davlatiga qarab ham taxlangan.

Shahrimizda rusiyazbon aholi uchun bunday kitob do'konlari talaygina. Vaholanki, butun boshli respublikamizda rus tili aholi 1 millionga ham bormaydi.

ELEKTRON KITOBLAR BOR, LEKIN...

Ayrimlar og'iz to'dirib "Bizda ham elektron kitoblar bor-ku!" deb aytadi. Ammo masala shundaki, avvalo, elektron kitoblarning aksariyatini kitob holidagi topish oson, ya'ni elektronini qidirishga hojat yo'q, aslida.

Ikkinchidan, ancha yillar oldin kam tirajda chiqqan, bugungi kunda qayta nashr etilmagan kitoblarni nafaqat elektron, balki kitob holidagi ham topish mushkul. Ularning asosiy qismi kirill alifbosida. Maktabda yangi alifboda o'qiyotgan bola uchun kirillchada kitob o'qish – yana bir to'siq. Eng samarali yechim: yozuvchilar, olimlar, nashriyotlar va jamoat tashkilotlari hamkorligida elektron bazalar yaratish, yoshlar uchun yangi alifbodagi adabiy portallarni ko'paytirish zarur.

Keyingi yillarda mashhur kitob do'konlari ham unchalik gavjum emas.

Kitoblar ancha uzoq muddatda sotiladi. Bu esa xususiy nashriyotlarning ishlab qilarish jarayoni, mablag' aylanmasiga ta'sir qilmay qolmaydi. Onlayn savdo tizimlarini rivojlantirish, jarayonlarni avtomatlashtirish, kitobxonlar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotda bo'lish bugun har bir nashriyot oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ilgari gazeta va jumallarda har hafta yoki har oyda yangi chiqqan kitoblar ro'yxati, sharh va tanqidlar chop etib borilardi. Bu an'ana tiklanishi kerak. Kitob o'qilishi, muhokama qilinishi, baholanishi bilan qadrli. Agar asar mahalliy bozorda o'qilmasa, uni jahon bozoriga chiqarish haqida o'ylashning o'zi ma'nosiz.

Bugun falsafasi, syujeti, uslubini bilan ta'sir etuvchi, yurakka yetadigan asarlarga ehtiyoj bor. Kitobxonda tanlov imkoniyati ko'p – elektron, audio, qisqartirilgan, vizual formatlar. Ana shunday sharoitda kitobxonning diqqatini tortadigan, jozibali asarlar kerak. Noshir esa aynan shunday kitoblarni jamiyatga yetkazishga mas'uldir. Hozir nashirlar, mualliflar va adabiyotshunoslar kitobxon bilan yuzma-yuz qoldi. Endi haqiqiy sifat uchun kurash davri boshlandi.

KITOB SOTUVCHILARI NIMA DEYDI?

Yaqinda Chorsudagi kitob do'koni sotuvchisi bilan suhbatlashib qoldim. Mana, uning fikrlari:



Gulnoza JO'RAYEVA,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti birinchi prorektori, filologiya fanlari doktori, professor

– *Ilgari kitobxonlarning ko'pchiligi tanish edi. Chunki ular tez-tez do'konimizga kirib, nima yangilik bor deb qiziqishardi. Ko'plari narxiga qaramasdan yangi kitob xarid qilardi. Lekin oxirgi yillarda bu manzara butkul o'zgardi. Endi faqat maktab o'quvchilari va talabalar, ular ham kerak bo'lgan darslik yoki tavsiya etilgan kitob uchun keladi. Afsuski, kitob do'konlari endi gavjum emas. Matbuot ko'shka (kioska)lari ham ko'z o'ngimizda birin-ketin yopilayotgani achinarli.*

Ko'pchilik kitoblarni internet orqali buyurtma qilmoqda. Biz ham shunday savdogar o'qib boshladik – sekin bo'lsa-da. Bugun kitobxon to'g'ri bozorda emas, ekranda o'qishni istayapti, audio tinglayapti. Adabiyotga qiziqish yo'qolmagan, faqat boshqa shaklga o'tdi. Ba'zilar uchun kitob ko'tarib yurish og'ir tuyuladi. Elektron kitobning esa og'irligi yo'q: arzon va qulay.

Shunday ekan, nega elektron kitoblarni ommalashtirmaslik kerak?

Hozir ota-onalarning ko'pchiligi kitoblar qimmatligidan noliydi.

Ular orasida birinchi marta kitob xarid qilayotganlari ham bor. Chunki kitob sotib olib o'rganmagan. Endi kitobfurushlar ham avliyo emas.

Ko'plari na muallifni taniydi, na mavzuni biladi. Shunchaki nomini o'qib, yoqqanini tanlab beradi. Biz azaldan kitobxon xalq bo'lganmiz. Kitob xalqimiz orasida nondan ham aziz sanalgan. Eng asosiysi, asl asarlar vositasida o'zining, dunyogarashining, tafakkurining va alal-oqibat jamiyatning o'zgarishiga hissa qo'shgan shaxslarni ajdodimiz deb faxrlanamiz. Ana shu buyuk xaloskor xislat oshnosi bo'lgan kitobsevar avlodni tarbiyalash uchun, avvalo, o'zimiz qo'limizga kitob olishimiz zarur.



BIR SHE‘R TALQINI

MA‘RIFAT NURI VA
HIKMAT ZIYOLARI

Agar ma‘rifat nuri va hikmat ziyolari bo‘lmasa, u she‘riyat yashovchan bo‘la olmaydi. Yangi davr, ya‘ni XX–XXI asr o‘zbek adabiyotida ma‘rifat tamoyillari ijodkorlarning tarixga, tarixiy shaxslar va mumtoz adabiyotga bo‘lgan munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Nasrda Oybek, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sultonov buyuk tarixiy shaxslar hayotiga murojaat qilib, mumtoz asarlar ijod qildilar. She‘riyatda Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva imkon qadar mumtoz she‘riyat nurlaridan bahra olib, she‘rda hikmatli so‘z aytishga urindilar.

Maqsud Shayxzoda ma‘rifatga tashna shoir edi. Mirzo Ulug‘bek ma‘naviy olamiga murojaat qilib, sovet mustamlakasi mafkurasida doirasidan chiqqa olmasa-da, ma‘rifat diyoridan o‘ziga yarasha nasiba oldi. Abulla Oripov o‘lmas she‘riyati, “Hikmat sadolari” (“Arba‘in”) va “Haj daftar” turkumlari bilan o‘z nomini abadiyat daftarida muhladi. Erkin Vohidov devon tuzish va g‘azal san‘ati, “G‘azal oqshomi” suhbatlari orqali devon adabiyoti va mumtoz she‘riyat bilan aloqadorligini ta‘minladi, va shubhasiz, abadiyatga daxldor shoirga aylandi. Rauf Parfi o‘z ijodini buyuk ozarbayjon mumtoz shoirlari bilan bog‘ladi, Nozim Hikmatning “Inson manzaralari” asari muhitida yashadi, jahon ma‘rifatparvar shaxslari va ozodlik kurashchilarining nom va ta’sirlarini o‘zbek she‘riyatiga olib kirdi, turkiy dunyoni birlashtirish g‘oyalari kuyadi. Omon Matjon o‘z ijodini nurli manzil tomonga burdi: Xojagon-Naqshbandiya shayxi, murshidi komil, avliyo zotlarning ulug‘laridan bo‘lmish Xoja Ubaydulloh Ahror (Xoja Ahror Valiy) dargohlariga bosh urib, u zot haqlarida “Xaloskor ruh” asarini yozdi, ma‘naviyat olamidani nasiba terdi. Halima Xudoyberdiyeva Turon va Turkiston g‘oyalari bilan o‘z ijodiga ijtimoiy ruh va ziynat baxsh etdi. Xurshid Davron qadimiy Samarqand ruhini adabiyotga olib kirdi.

MUMTOZ ADABIYOT BILAN
ALOQADORLIK

Aytish lozimki, mumtoz adabiyotdagi badiiy tafakkur va hikmat an‘analari ijodkorning o‘sha mumtoz adabiyot bilan aloqadorligida davom etadi. Eshqobil Shukur mumtoz adabiyot badiiy, milliy, ma‘rifiy tafakkur va hikmat an‘analari “Loy chaqmog‘i” turkumida davom ettirdi. Afsus, bu o‘ziga xos teran ma‘rifiy turkum haqida munaqqid olimlarimizning tadqiqot ruhidagi biror maqola yozganini ko‘rmadim. Quyida Eshqobilning “Zunnun Misriyning yashil o‘limi” she‘ri xususida fikr yuritmoqchiman.

Shoir yozadi:



**Shayxning xazon kuni bahorlar keldi,
Falak yashil bayroq tusiga kirdi.
Ko‘k yuzini tutdi soyasiz
Nihoyasiz yashil qushlar, nihoyasiz...**

ZUNNUN MISRIY KIM BO‘LGAN?

Hazrat Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida yozishicha, Zunnun Misriy avliyo zotlar va tasavvuf toifasining birinchi tabaqasidandir, Imom Molik ibn Anasning shogirdi bo‘lib, u zotning mazhabidadir. U zotning muayyan mavzularga ajratilgan hadislardan iborat “Al-Muvatto” (“Xalqchil kitob”) asarini shaxsan o‘zidan ta‘lim olgan, fiqh ilmlarini o‘qigan. U kishining piri Mag‘ribda Shayx Isrofil bo‘lgan. Hazrati Abdulloh Ansoriy e‘tirofiga ko‘ra, “Zunnun Misriy zamonning imomi, davrning yagonasi va bu tasavvuf toifasining boshidir. Barcha valiy zotning nisbati va izofati (bog‘liqligi va intisobi) u kishiga bo‘lgan”.

“YASHIL O‘LIM”NING DALILI

Shoir Eshqobil Shukur nima sababdan tasavvuf arboblari bilan bo‘lgan valiy zotning vafotini “yashil o‘lim” deb nomlayapti? Bu satrlarning ta‘vili nimadan iborat? Bu o‘lim – abadiy o‘lmaslikdir. Buning ta‘vili hazrat Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” kitobida go‘zal shaklda bayon qilingan. Asarda aytilishicha, hazrati Zunnun Misriyning janozasini, ya‘ni tobutini

sirruhu olamdin o‘tgunicha bu inkor davom etdi”.

XALQNING E‘TIROFI VA
QABUL QILISHI

Nihoyat, Zunnun Misriyning tobutiga yashil qushlar soya solib borganini ko‘rgach, butun xalq u kishini e‘tirof etdi va ta‘limotini qabul qildi. Bunga yana bir sabab bor edi, so‘nggi kunda u kishining qabri boshida bitilgan bir xat topdilar, unda: “Zunnun Allohning suyuqli bandasi va shavqi-muhabbati tufayli Alloh yo‘lida jonini fido qilguvchidir”, deb yozilgan edi. Bu xat odamzotning xatiga o‘xshamas, uni har qancha yuvsalar, yana yozig‘liq ko‘rinar edi.

Eshqobil Shukur yozadi:
**O, shayxning tobuti go‘riston qadar
Daraxtday ko‘karib ulgurdi... Shajar.
Yorab, ne masofa qondan jongacha,
Shayx ko‘karib ulgurdi go‘ristongacha.**

YASHIL QUSHLAR SIRI VA HAQIQATI
NIMADAN IBORAT?

Muborak hadis kitoblari shahidlarning ruhlari yashil qushlar ichida joylangani haqida ko‘pgina hadislar bor. Xususan, Abdurrahmon Jaloluddin Suyutiyning “Barzax hayoti” kitobida bu haqda g‘oyat go‘zal hadislar keltiriladi. Imom Muslim hazrati Ibn Mas‘uddan (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi. Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Shahidlarning ruhlari jannatdagi yashil qushlarning ichida bo‘lib, qushlar xohlagan tomoniga uchib yurib, Arsh ostidagi qandillardan boshpana topadi”.

Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom Abu Dovud, Imom Hokim va Imom Bayhaqi “Shu‘abul-iymon” kitobida hazrati Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladilar. Janob Nabi sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Do‘stlaringiz biror kishi tufayli musibatlansa, Alloh uning ruhini yashil qushning ichiga joylaydi. Qush esa, jannat daryolariga kelib, mevalaridan yeydi va Arsh soyasida osilgan oltin qandillardan makon topadi”. Imom Ahmad ibn Hanbal, Abdulloh ibn Hamid, Ibn Abu Shayba “Musnad”larida, Imom Tabaroniy “Maojim” kitobida hazrati Ibn Abbosdan (roziyallohu anhumo) rivoyat qiladilar. Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Shahidlarning ruhlari yashil gumbaz ostida jannat eshiklari yonidan oquvchi daryo ustida bo‘lib, rizqlari ularga erta-yu kech kelib turadi”.

Imom Tabaroniy Omir ibn Habibning “Marosil” kitobidan rivoyat qiladi: “Hazrati Nabi sollallohu alayhi vasallamdan mo‘minlarning ruhlari haqida so‘ragan edim: “Mo‘minning ruhi jannatda xohlagan tomoniga sayr qiladigan yashil qushning

ichida bo‘ladi”, dedilar. Shunda sahobalar: “Ey Rasululloh, kofirlarning ruhlari-chi?” deb so‘rashdi. Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sijjida hibs qilingan bo‘ladi”, dedilar.

**Yorab, ne g‘avg‘oda tan ila ko‘ngul,
Daraxt tobut ichra o‘sardi bir gul.
Ikki dunyo aro tilim va tilim
Yastanib yotardi yam-yashil o‘lim.**

KAROMAT BILAN KELTIRILGAN ILM

Yashil qushlarning yana bir siri shundaki, Zunnun Misriyning ma‘no olamidagi so‘nggi – uchinchi safardan keltirgan ilmi qadam bilan yurib borib keltirilgan ilm emas, balki xuddi u zotning janozasiga soya solgan qushlardek, himmat, jahd va javonmardlik, balki karomat bilan keltirilgan ilm edi. Shayxul-Isлом Abdulloh Ansoriy shunday degan. Yashil qushlar jahon tarixida Zunnun Misriydan keyin yana Imom Shofe‘iy hazratlarining shogirdi – Mu‘azziniyning janozasiga ham soya solganlari naql qilinadi (Zunnun Misriy va Mu‘azziniy haqlarida barcha ma‘lumot hazrati Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” kitobidan olindi). Bu karomat u aziz zotlarning Haq taolo huzurida yuksak ma‘naviy martabasi borligini ko‘rsatadi.

Xulosa shuki, Zunnun Misriy joni va mollari bilan Alloh yo‘lida o‘zini fido qilib o‘tgan sababli yashil qushlar karomatiga noil bo‘ldi. “Nasoyim ul-muhabbat” kitobida kelgan “Shavqi-muhabbati tufayli Alloh yo‘lida jonini fido qilguvchidir”, degan ta‘rif buning isbotidir.

Yer yuzida o‘tgan va yashil qushlar ichida joylangan barcha shahidlarning ruhlari Zunnun Misriyning o‘limi va Allohga yetishuvini muborakbod qilish hamda ruhini olqishlash uchun birinchi osmonga tushganlar.

Yashil qushlarning soyabon bo‘lib tushishi Zunnun Misriy shahidlik martabasini topganiga dalolat qiladi. Chunki ba‘zi nodon kishilar o‘ylaganidek, shahidlik faqat janglarda o‘lish yoki o‘dirilishdan iborat emas.

Mumtoz adabiyot, xususan, “Nasoyim ul-muhabbat” asari buyuk ilhomlar, hikmat va irfonlar manbayidir. Bu asarni hozirgi tilga muvofiqlashtirib, soddalashtirmoq o‘ta zarur xizmatdir. Bu o‘lmas asar adabiyot uchun hali ko‘p yaxshi she‘rlar mistoqi bo‘lib xizmat qiladi.

Mumtoz adabiyot bilan aloqador bo‘lgan shoirlar ijodida ayrica bir yuksaklik va teranlik ko‘zga tashlanadi. Buning dalili o‘laroq, Eshqobil Shukurning “Loy chaqmog‘i” turkum she‘rlari o‘zbek she‘riyatining yaxshi va yuksak namunalariandir.

Mirzo KENJABEK

NAZM

Chorsham RO‘ZIYEV

“...cho‘qqilarga chiqib mardona...”

*Keldi jonim bo‘g‘zima qaddi rasoning dastidan,
Dam-badam to‘lg‘onaman nozik adoning dastidan.*

*Na ko‘ngul ochgay manga, na bir ko‘ngilga bo‘ylagay,
Telbadek yolvoraman jabr-u jafoning dastidan.*

*Suhbati shirin qurib o‘tkan aziz dam qaydadur,
Eslanib ko‘ngil qora ko‘zi qaroning dastidan.*

*Kelsa umrim yashnatib olamni ravshan aylagay,
Kelmasa, bo‘lgum ado har ne baloning dastidan.*

*Dardi yo‘q jonon seni holingni qaydin bilg‘usi,
Muncha ko‘p o‘ksinmagil ul mahliqoning dastidan.*

*Sal‘yiroq ketsam unut bo‘lgaymu deb hijronlari,
Har kecha chog‘lanaman oh-u nidoning dastidan.*

*Shosh qolib Chorsham Samarqand sori otlandim, base,
Yo Buxoro boraman ul bevafoining dastidan.*

*Vijdon ila yashay desam, jon qiynalur,
Jonni o‘ylab yashasam, vijdon qiynalur.*

*Ikki o‘tning orasida turmoq qiyin,
Tomirimda qaynab-qaynab qon qiynalur.*

*Arosatda o‘tgan umr – umr emas,
Oqibati – oxiri imon qiynalur.*

*Azob berar menga oddiy hayot tarzim,
Behuda deb ruhi-jovidan qiynalur.*

*Erk ixtiyor aylab yashash yo‘lini tut,
Shunda chiday olmayin shayton qiynalur.*

*Muhabbatni shior bilgin yor oldida
To ko‘ngildan kechmasin – jonon qiynalur.*

*Chorsham, qancha qiynoq tuyding kechmishingda,
Yetar endi – yo‘qsa g‘azalxon qiynalur.*

*Otamdan so‘ng otam ekkan ko‘p daraxt
Nogoh qurib qoldi, chiqarmadi barg.
Hamma hayron bo‘ldi, men esa karaxt –
Buning boisi ne, bunga ne sabab?*

*Ehtimol, sovuqlar aylagandir kor,
Ehtimol, tekkandir birovning ko‘zi.
Ular yashardilar birga baxtiyor
Inson va tabiat uyg‘un-da o‘zi.*

*Sir-u sinoatga to‘la bu dunyo
Anglab bo‘lmas ekan barini tayin.
Menimcha, daraxtlar saqlashib vafo
Otam ortlaridan ketishgandayin...*

*Alloh ato etgan tortiq – sinashta do‘st,
Hamma do‘stlaringdan ortiq sinashta do‘st.*

*U bo‘lmasa, kim yaraydi koringga, ayt,
Borlar ichra boring – hoziq sinashta do‘st.*

*Og‘ir damda qo‘lin cho‘zib kelar doim,
Marhamatin tutmay darig‘ sinashta do‘st.*

*Olislarga ketganda ham jon tomiring,
Ko‘ngling ichra yashar sodiq sinashta do‘st.*

*Havolanib qayta qulab tushganda bil,
Kerak bo‘lar eski choriq – sinashta do‘st.*

*Sinalmagan do‘stga ko‘p ham ishonmagin,
Senga faqat bo‘lar shafiq sinashta do‘st.*

*Chorsham, shunday do‘stlaring bor, ming shukr qil,
Sen ham bo‘lgin do‘stga loyiq sinashta do‘st.*

*Bir kungina og‘rinmayin yashasam edi,
Bir kungina tashvishlarni tashlasam edi.*

*Men ham odam naslidan deb ko‘kragim kerib,
Bir kungina yuragimni xushlasam edi.*

*Vodiylarga, cho‘qqilarga chiqib mardona,
Bir kungina bahorlasam, qishlasam edi.*

*Muhabbatim, yoshligimni yodimga olib,
Bir kungina ko‘zni shodon yoshlasam edi.*

*Shuurimga, tuyg‘ularga erk berib ozod,
Bir kungina osmonlardan tushmasam edi.*

*Ming yillarga tatir edi ehtimol shu kun,
Bir kungina baxtiyorga o‘xshasam edi.*

*Chorsham, qaydan topmoq mumkin o‘sha kunni, ayt,
Bir kungina bu dunyodan bo‘shasam edi.*



*Seni ko‘rdim – yana holim yomon bo‘ldi,
Dilimda ishq-u otash bir jahon bo‘ldi.*

*Chiroylisan hamon barcha suluvlardan
Yo‘lingda oshiqi zorlar chunon bo‘ldi.*

*Nigohing tushdi-yu nogoh nigohimga
Kipriging otgan o‘qqa jon nishon bo‘ldi.*

*Tamom yondim, tamom kuydim, ishon, ey, yor,
Ko‘zimdan yoshlarim obi ravon bo‘ldi.*

*Yurakda qolgani armon ekan, yo rab,
Qachon oshiq elin joni omon bo‘ldi?*

*Umid uzmay jamolingga boqar erdim,
Sen-ey, ketding – rang-u ro‘yim samon bo‘ldi.*

*Firoqingga chiday olmadi hech Chorsham,
Fig‘oni bori olamga ayon bo‘ldi.*



ELEGIYA

1

...hurlik zamonida ulug' adib merosi yangi tamoyillar bilan qaytadan inkishof qilinmoqda, ijodining boshlanish pallasidayoq ikki mumtoz asar yaratgan muallifning kelajakda nimalar tuhfa qilishi mumkinligi yuzasidan farazlar bildirilayotir, bir so'z bilan aytganda, Abdulla Qodiriy ijodiy ustaxonasiga qiziqish katta va bu nazar kuchayib boryapti. Garchi "Obid ketmon" mashhurlikda ikki roman shavkaticha bo'lmasada, biroq o'sha davr adabiyotida yangi kashfiyot sifatida tan olingan, bugunning nazari bilan esa bevosita adib yashagan muhit qay tarzda badiiy inkishof etilishiga yorqin misol sifatida baholanadi. Bu asar mavzusi "moziydan, o'tmishning qora kunlari"dan emas, yozuvchi nafas olib turgan muhitdan tanlangan edi. Shu jihatdan olib qaralsa, adabiyot va zamon kesimida bu asar hali kashf etilmagan qit'a deyish mumkin. Muallifning mahorati, so'z san'atkorligi, davr manzaralarini "qog'ozga o'rab" aks ettirish usullari bo'lajak jurnalistlar, publitsistlar, umuman, so'z ahli uchun muhtasham maktab vazifasini o'taydi...

Abdulla Qodiriy yozuvchi sifatida erkin emas edi – bu bor gap. Ikkinchi tomondan esa uning yurtdoshlarga, zamondoshlariga, qolaversa, kela-jakka aytadigan gaplari ko'p edi. Bu ikki holatni adibning iqtidori o'rtasidan hayot irmog'i oqib o'tadigan tik qirg'oq sifatida tiynatida mujassamlashtira olgan va bu notumanosiblikni ijodiy uslub sifatida bir qobiqda jo qilib, novatorlarcha inkishof etganicha turli adabiy usullarni qo'llash bilan maqsadiga erishgan. Bunda eng kichik unsurlardan ham samarali foydalangan. Masalan, nazarimizdagi lavhada itning nomi – Arslon. Botinda mujassamlashtirilgan ma'no shundaki, aslida uning nomi – Arslon, o'zi esa – it! (Talqinini shunday qabul qilish joiz: bizga taraqqiyotni olib keldik, deya maqtanganlarning nomi – "katta og'a", aslida esa – bosqinchi!) Bunday kuchli sarkazm (achchiq kinoya) lavhaning boshidan oxirigacha yorqin uslub sifatida har satrda mohirona "o'qlangan". Atrof manzarasi, undagi chalgituvchi sokinlik, o'zini xo'jayin sezib, izg'ib yurgan, hushyor va qasosga tashna – it... Hammasi ramziy.

2

Shunday qilib, "Obid ketmon"ning beshinchi lavhasi – "Men bosmachi emasman" bo'limi tuzilish nuqtayi nazaridan, voqealarning tadririy rivojlanishi, keskinlikning yuzaga kelishi va qo'y berishi, uning yechimi, xulosa qismlari qurilishi (bir so'z bilan aytganda, kompozitsiya) jihatidan shunday tartibda keladi:

1) Voqea kechadigan joy manzarasi. "Zanjirdan bo'shatilgan" va ertalab zanjirlanmagan it, itni zanjirlashni unutib, uxlab qolgan tegirmon qorovuli Egamberdi. Mahalliy xo'jayin Abdujalilboyning tasvir va tafsiloti;

2) "Ko'zini ko'n etigining betidan uzmay" munkillagancha "tepani kesib yasalgan arava yo'lining yuqorisida, orqasida bir-ikki pud yuk ko'targan zo'r gavaladi ...Mulla Obid" va ko'zi qonga to'lgan oti Arslon, o'zi it bilan beparvo bukchayib kelayotgan mardumning to'qnashuvi. Bu kurashda yozuvchining ichki xohishlari ifodasi o'laroq odam "g'ajilib yotgan qo'lini bo'shatishga intilib o'tirmay, sog' qo'lini ohistagana Arslonning bo'g'ziga yuboradi". ..."Mulla Obid ko'pg'a kuch sarf qilmasi, sovuqqonlik bilan Arslonning bo'g'zini siqib turadi..." "Arslonning tushmush'ida qon ko'rilgach, Mulla Obid xiqildoqni bo'shatadi. Arslon jon chekishib turmay, ...yerga cho'zilib qoladi" (Bu holat ko'ngil tubida cho'kib yotgan orzudek tuyuladi).

3) Itning egasi, "mahalliy gumashta" Abdujalilboy bu holdan hayron. Itning xunini talab qilay desa, yigitingni vajohatidan qo'rqadi. Boy butun zahrini uxlab qolgan qorovuliga sochadi,

jarimani undan undirishiga dag'dag'a qiladi;

4) Boy bu harakatdan g'ayirlik izlaydi. Qishloqqa (Tiktepaga) ko'chib kelganiga ko'p bo'lmagan, ko'pchilik uchun noma'lum bu vajohatli yigitni yaqindan beri shov-shuv bo'la boshlayotgan bosmachilardan deb o'laydi, itni o'ldirib, otlarimni o'g'irlamoqchi bo'lgan, deb faraz qiladi. Pishiq-puxta boy zamonning kelishiga hushyor, u "bosmachi"ni qo'ldan chiqarmoqchi emas. Tadbirkor odam u bilan yaqinlashish yo'llarini izlaydi va o'zidek puldor boylar sarmoyasining taqdirini o'ylab, "Tiktepa ustunlari" – Mulla Sultonqul, Hubbiyoylarni ham bu mashvaratga jalb qiladi;

5) Tadbirkorlik bilan zamonning kelmishini fahmlagan korchalonlarning yangilikni, ya'ni "bosmachi" deb faraz qilinayotgan shaxsni o'rganish jarayoni boshlanadi. Navbatma-navbat, har jumada Mulla Obidni mehmon qilib, undan sir olmoqchi, yana uni nazarlarida saqlamoqchi bo'ladi. Shu jarayonda yozuvchi jamoatning boshida turgan, gapi kesadigan "ustun"larning ichki ma'naviy olamiga sayr uyushtiradi. Go'yo, millat kimlarga ishonishi mumkin? Holbuki, ular boylik uchun hamma pastkashlikka tayyor mayda kimsalar;

6) Ammo Mulla Obid sir beradigan emas. Boylar esa undan gap olishga urinaldilar: "...bizning o'rtadagi yigitlarimiz ham Farg'onadagi og'alaridan namuna olishlari kerak edi, yaroqlarini o'z boyonlariga emas, bolsheviklarga qaratsalar, boy og'aynilar ham bezrayib qarab turmas, qo'llaridan kelgan yordamni qahramon yigitlaridan ayamas edilar". Shu nuqtada yozuvchining dunyoqarashi va mavjud hayot tartiblari kesishadi, nozik ishoralar orqali adib muddaosini ifodalaydi, o'z iztirobini izhor etadi: "Mana shu fikrimiz sizga qanday o'xshaydi, polvon?"...

7) Avvalo, o'sha kunlar dard-u tashvishini kiftini keltirib ayta olgan adib mahoratiga tasanno aytgan holda vaziyatni kuzatamiz. Bu nido, millat dardi davrada o'zgacha aks sado beradi. Allaqachon "sir"dan voqif bo'lgan Mulla Obid "beixtiyor mo'ylabi ostidan kulib qo'yishga majbur bo'ladi, birdan ko'zini zo'r(g'a) ochib (balki ko'zi ola-kula bo'lib ketgandir. **H.S.**), yuzi shu chog'gacha ko'rimlagan bir dahshat kasb etadi".

El ishongan polvonning ahvoli shu edi. "Bu ko'rinishdan boylar yerga singigandek bo'lib, kayflari tarqaydi, ko'zlari ochiladi". Jamiyatning manzarasi shunday edi. Qalam egasi dardini ichiga yutadi, chamasi, "Durust! – deydi Mulla Obid zaharxanda qilib, – yaxshi o'ylagansizi!" tarzida suhbatni yakunlaydi. Ammo uning munosabati, o'y-xayoli aniq emas, buni adib ham ochiqchilaydi. Vaziyatdan silliq chiqib ketadi. Yuzaga kelgan holatdan ikki tomon ham xijil, anglashilmovchilik hammani dovdiratib qo'yadi, davra tarqaydi. "Ular o'z fikrlarini bosmachiga yotishib kelmaganligini payqaydilar. Boy... bu kun-erta boshlab o'z molining talanishini va boshining ham sapchadek uzilishini aniq ko'radi. Mulla Obidning dahshatli vaziyati tezda tarqaydi, goho munosabatsiz bo'lsa ham o'zicha iljayinqirab qo'yadi"...

Yozuvchi tasvirni shu nuqtagacha chuqurlashtiradi. Yurt egalarini "usta Yo'ldosh", "Akmalcha" deb darj etishdan cho'chimagan qalam ancha tobiga kelgan, shu tuzumning shafqatsizligini olti oy qamoqda o'tirib his etgan, xullas, qolipga tushgan. Xavfsiz hudud chegarasi shungacha edi. Ana shu sinusoidal chiziqda adibning qalb dramasi aks etgan: u xohlagan hayot manzarasini badiiy inkishofetish darajasi va qalamning imkoniyati! Shunda ham ijodiy tamoyilidan voz kechmaydi, faqat "Tushungan tushuvadi, tushunmagan o'zi biladi" qabilida yo'l tutadi. Baribir, lavhaning davomida o'z fikrini nazokat bilan izhor qiladi.

Shunday qilib, Mulla Obid o'zini "oqlab" oladi, "dahshatli vaziyati tezda tarqaydi..." Ziyofatdan qaytishda

birga kelayotgan Abdujalilboy "...munosabatsiz so'zlar bilan boyagi ginani mulla Obidning ko'nglidan chiqarishga tirishadi, uning qo'rqoq va razil tabiatidan **Mulla Obid** goh kulib, goh achchiqlanadi" (diqqatni oshiring. **H. S.**)

Ayni mavridi bilan oxirgi gapni mantiqan tahlil qilsak, yozuvchining muddaosini balki ilg'agan, uni to'laroq tushunishga yaqinlashgan bo'lamiz. Avvalo, nashrning shu o'rnida "mulla" so'zi kichik harfda yozilgan, bu balki



davronni ulug'lamaydi, nega dohiy Stalin zamonidan go'zal romanlar yozmaydi? Axir u yoza oladi-ku. Yozgan-ku. U ataylab yozmayapti, shu bilan bu tuzumga qarshi ekanini namoyish etyapti" singari tuturuqsiz ayblar taqaldi. Jo'n qilib aytganda, o'zi xohlamagan ovqatni yeyishga majbur qilishdi va ana shunday tazyiqlar ostida "Kolxoz hayotidan qissa" deb "Obid ketmon" asarini yozdirishdi.

Undan "O'tkan kunlar"ning nafosatini, "Mehrobdan chayon"ning salo-

Adibni

ANGLASH

arzimas musahhihlik xatosidir (balki po'k yigitga munosabatidir?), ammo ham kulgi, ham achchiq kayfiyat qo'zg'agan vaziyat kinga tegishli? Abdujalilboy mulla Obidning ustidan kulyaptimi yoki aksincha? Mantiqan qaralsa, o'zlari ishonmagan odam bo'lib chiqqanligi uchun boylar Obiddan norozi, ular dehqonning "Qo'rqoq va razil tabiatidan" kulish va achchiqlanishga haqlari bor. Nashrda esa Mulla Obid suhbatdoshining ustidan kulyapti... Mantiq nimada? Aslida, yozuvchi kim tarafda, boydan kulyaptimi, dehqondan?

Bir oddiy holat: keyingi gapni quyidagicha o'qib ko'ring: "...munosabatsiz so'zlar bilan boyagi ginani mulla Obidning ko'nglidan chiqarishga tirishadi, uning qo'rqoq va razil tabiatidan goh kulib, goh achchiqlanadi". Farq "**Mulla Obid**" degan so'zning chiqarib tashlanganida bo'ladi. Shunda boy dehqonning po'kligidan kulgan bo'lib chiqadi. Balki yozuvchining maqsadi ham shudir, shu ta'nani izhor qilishdir, ya'ni u nishonga olgan dard puldorlar bilan mard, vajohatli yigitlarning birlasha olmaganidadir?! Yozuvchining vaziyatga bahosi (hukmi) lavhaning davomida aniq bo'ladi. Boylar ishonch bildirgan pahlavon yigit Tiktepa qishlog'ida oddiy tirikchilikka berilishi, "Mulla Obidning tepa buzishi, ketmoni bilan shuhratlanishi, o'sha qish "ustunlar"imizcha eng past hunar hisoblangan **yamoqchilik bilan kun kechirishi** (ta'kid bizniki. **H. S.**) ularni shubhadan qutqardi". "Shubhadan qutulish", aslida, umidlarning barbod bo'lishi emasmidi?

3

"Obid ketmon" asarining dunyoga kelishi yozuvchi hayotidagi silkinishlar, anglashilmovchiliklar, ig'vo va bo'htonlarga to'la davrga to'g'ri kelganini tadqiqotchilar ko'p ta'kidlashgan. Ikki roman bilan milliy adabiyotda katta shov-shuv qozongan yozuvchi bu iqtidorining samarasini qancha tahqirlar, to'qilgan ayblar, hatto qamoq jazosi bilan tortishga majbur bo'lganligi bor gap. Unga mayda burjua yozuvchisi, o'tmishni ulug'lovchi, o'rislarni yoqtirmaydigan yot sinf vakili sifatida qarashdi. Ko'ngil yumushi, kayfiyat mevasi hisoblanuvchi ijod olamiga ham chovut solishib, "Nega baxtli

hiyatini talab qilishdi. Bu "...yuragimiz, qalbimiz – partiyamizniki!" degan zamonlar edi. Ana shunday ikki o't orasida qalam tutgan nodir iqtidor egasining holatini tasavvur qilaylik. Bunday holda yozish jasorat va ...azob emasmidi? Lekin adib yozishga majbur edi va ...shu taxlit yozdi. Iztirob ichidagi olamini tagma'nolarda ifodalab, kinoya (ironiya) va sarkazmlardan, tajahhuli orifona-yu, irsoli masallardan, zaharxanda-yu askiyalardan, qochirim va latifalardan unumli foydalandi, turfa uslublar niqobiga o'zining botiniy kechinmalarini o'radi, shimitib singirdi. Jahon adabiyotida shuhrat qozongan Ezop, Yuvinal, Lafonten, Servantes, Lopa de Vega, Balzak, Chexov singari buyuk so'z san'atkorlari merosini o'zbek milliy adabiyotida mujassam etdi. Shuning uchun ham bu xazinani tushunish, qabul qilish, his qilish oson emas.


...Odamlar dunyosi tirik organizm sifatida yashashni davom ettirar ekan, g'oliblar va mag'lublilar bo'lishi aniq: kimdir yutib chiqadi, kimdir yutqazadi – hayot shu izdihomda davom etadi. Jamiyat ishtirokchilari g'oyalar kurashida ikkiga ajraladilar, "front" hosil bo'ladi va, albatta, mohiyat yuzaga chiqadi. Shu holatni tasdiqlagandek, Abdulla Qodiriy yozadi: "Mulla Obid bilan Tiktepa "ustunlari" mana shu yo'sinda tanishdilar va Mulla Obidning ko'nglidan chiqmay turgan (qo'shib yozilsa kerak. **H.S.**) chuchmal bir "xotira" qoldirdilar". Shu bilan yaqinlik uziladi, aloqa "kolxoz tuzilganicha sovuq holda davom etadi". Lavha shu so'zlar bilan tugaydi. Unda esa adib ijodiy qiyofasini namoyish etadigan ko'plab unsurlar mavjud.

4

Avvalo, asarning mazkur bo'lagi ham mohir qalam bilan qog'ozga tushgan. Undagi har bir so'z, ibora, tasvirga o'ralgan ishora teran mazmun ifodalaydi. Ifoda yorqin, xalqchil. Shuningdek, xarakter yaratishdagi mahorat manaman deb turadi. Ishtirokchilarning har biri aniq qiyofada namoyon bo'ladi: Egamberdi aka (uning kasbi yoki yumushi eslatilmaydi, demak, nomsiz kimsa) loqayd, tegirmon guvlasidan orom olib uyquga ketgan bir mardum. Abdujalilboy va boshqa boylar ishning ko'zini biladigan, odam taniydigan va tanlaydigan zotlar. Mulla Obidning notanishligi, basavlat gavdasidan hurkib, unga mulozamat qiladilar, biror ish chiqarishni ko'zlaydilar. Bu yo'lda ular hamma riyokorlikka tayyor: "Hubbiyoy betahorat bo'lsa ham namoz o'qib" o'zining sirini yopadi. Abdujalilboy Egamberdiga: "Kunga qara, kunga, dayus! Tegirmon onangning beshigi deb o'yladingmi?", "Bu qanday rasvollikki, Arslondek it ketsa, tegirmon haqi ketsa. Bu ham yetmagandek, bir pud un ham ketsa..." deb dag'dag'a qiladi, Mulla Obidga qolganda esa "Arslondek itni o'ldirib

qo'ygan bahaybat ko'rinishi" yigitga mulozamat quyuq, to'kilgan bug'doyini unga almashtirib, yana uyiga eltib berishni tayinlaydi, buning ustiga uni munosib mehmon qilishda saxiy: "...bir qo'zi so'yib, tandir kabob qilish kerak, albatta, kabobning yonida uch chetvert xonaki may, bu topilmaganda biror chetvert samagon lozim. Bulardan so'ng yaxshilab bir palov"...

Ayniqsa, yozuvchining mahorati it – Arslonning tabiatini yorqin ochib berishida va unga yuklagan ijtimoiy



Hakim SATTORIY

davr haqiqati! Mantiq nimada: garchi hayot talabi Mulla Obidning maqtalgan qahramonlar safida bo'lishini taqozo etsa-da, bu borada na yigit erkin, na yozuvchi! Ma'lumki, Mulla Obid kattagina hajmli asarda aks ettirilgan voqealar girdobi – yangi hayot qozonida obdon qaynab, Sovet tuzumining ko'zga ko'ringan vakiliga aylanadi. Mana, gap nimada!

5


Har holda, kolxozlashtirish haqida asar yozish nozik ko'ngil mayllarini, bokira tuyg'ularni, oshiq-ma'shuqlarning intim kechinmalarini nazokat bilan ifodalash emas edi. Yozuvchi nastarin ufurib turgan gulzordan o'tib, qirg'in-barot kechayotgan izdihomga kelgan edi. Endi uning so'zi katta ijtimoiy-siyosiy ma'no kasb etishi, o'sha kunlarning shioriga aylanib, davralarda tilga tushishi kutilayotgan edi. Uning zimmasidagi adabiy buyurtma sots-realizm metodi asosida yangi insonni aks ettirishni taqozo etardi. Biroq Abdulla Qodiriy har bir imkoniyatdan kelajakka aytadigan so'zini ifodalashda foydalandi. Masalan, "eski tuzumning qoloq odami" sifatida gavdalanitirilgan va har xil ig'volarni "visirlab" yuradigan Kalvak Mahzum Toshkentda saqlanayotgan Mus'hafi Usmoniyni tavof qilishga boradi: "Mazkur Kalomi sharifning ziyorati ko'bdan beri ko'nglim'ga o'rmoshqon erdi va shuning uchun Maxsido'z mahallasiga qarab yo'l solg'on erdim..." "Qiroatxona – iboratdir tilovati Qur'on qilturgan joydan. ...Vaholanki, aytgan iborati kaminaning savolimga javobi bosavobdir" – bu joyda o'ruscha kiyingan zotni ko'rib deydi zamondan bezigan, tajang odam o'z dardlizi-tirobini pinhona ifodalab. Bu satrlar umumiy olov ichida yonmay qolgan toshbitiklarga o'xshaydi. Holbuki, diniy ibodat emas, muqaddas kitobni tilga olish ham jinoyat hisoblanardi. Millat asl farzandining tashvishi ana shunday muqaddas tuyg'ularning payhon qilinayotganida edi.

Alam shundaki, ikki o't orasidagi ijod har qancha harakat, xohish bo'lmasin, butun bo'y-bastini namoyish qila olmadi. Kichik asarlarda katta-katta epopeyalarga ozuqa bo'ladigan teran ijtimoiy manzaralar uyigan qon kabi laxta-laxta bo'lib cho'kib-to'lib qolaverdi. Ularni batafsil sharhlash, "O'tkan kunlar"u "Mehrobdan chayon"dek muhtasham badiiy aks ettirish uchun tinch va sodi ijodiy muhit, mangu tark etmas ilhom kerak edi. Bunday jannatiy imkonlar o'rninga taqdir ulug' san'atkoriga qamoqxona, avaxtalarni, tuhmat va ig'volarni, tazyiq va xo'rliklarni nasib etdi. E, voh! Millat adabiyotining muhiti shunday bo'ldi... So'nggi asarlar ijod gulshanining barq urgan chechaklari emas, vulqonning so'nib borishi, odashin ilhomning kafforat bo'lishi edi. Davrning tuhfas shunday edi...

Davr, tuzum esa undan muttasil o'zini ko'rsatishni talab qilardi. Qanday yo'l tutish lozim?! O'z ijodiy tamoyili – haqiqatni aks ettirishmi, insoniy e'tiqodi – islomiy axloqqa sodiq qolishmi yoki zamon aravasiga chiqib, uning qo'shig'ini kuylashmi? Narigi qirg'oqqa o'tishda naqd jannatni va'da qilishyapti, mansab, unvon, imtiyozlar... Ikki yo'ldan biri: yo o'zligingni saqlaysan, yo ko'p qatori zamon yo'rig'iga yo'rg'alaysan.

Bugun metafakirlar "Abdulla Qodiriyga shahidi a'lo rutbasi nasib etgan" deyishmoqda. Bunday taqdir egasining nomi qiyomatgacha unutilmas ekan. Zero, "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon"ning shuhrati hamon avjida. Bu go'zal milliy romanlarning obro'siga yillar, tuzumlar osha soya tushgani yo'q, qizig'i – ular bilan bo'ylashadigan asarlar juda kam.

Hakim SATTORIY



“**Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillari go'yo tekis sahrada to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelgandek paydo bo'ldi.**

Muxtor AVEZOV



Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbek tili yer yuzidagi qadimiy tillardan biridir, uning tarixi, buguni va kelajagini o'rganish benihoya sharaflı va muqaddas yumushdir. Bu haqiqatlarni teran anglagan, o'zbek va boshqa turkiy tillarni batafsil ilmiy tadqiq etishni muntazam maqsad qilgan, o'zbek tilshunosligining darg'alaridan biri, til sinoatining chinakam va hassos sinchisi akademik G'anijon Abdurahmonovning ilmiy faoliyati har jihatdan ibrat namunasidir. Bu ulkan alloma bugun hayot bo'lganlarida, bir asr bilan yuzlashgan bo'lar edilar. Til va tilshunoslik ilmiga adoqsiz e'tiqod bilan qaragan G'anijon Abdurahmonov ilmiy-tadqiqot faoliyatini anchayin erta boshlagan. U pedagogik faoliyat olib borish bilan bir qatorda professor Ulug' Tursunov rahbarligida "Hozirgi o'zbek tilida sifatlarining otlashuvi" mavzusida nomzodlik ishini tayyorlab, 25 yoshida, ya'ni 1950-yilda muvaffaqiyatli himoya qilgan. 1960-yilda esa olim 35 yoshida "O'zbek adabiy tilining qo'shma gap sintaksisi asoslari" nomli ishi uchun filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

Alloma tilshunosning ilmiy va ilmiy-metodik tadqiq nigohi serqamrov, tilshunoslikning aytarli barcha sohalari va dolzarb muammolarini e'tibordan chetda qoldirmagan. Uning ilmiy izlanishlari doirası fonetika, morfologiya, sintaksis, til tarixi, tarixiy fonetika, qiyosiy grammatika, qadimgi yodgorliklar tili, milliy tillar taraqqiyoti, nutq madaniyati va uslubshunoslik, badiiy til muammolari kabi tilshunoslikning xilma-xil yo'nalishlarini, shuningdek, oliy, o'rta maxsus hamda o'rta ta'limda ona tilini o'qitish kabi qator sohalarni o'z ichiga oladi. Zakiy tilshunosning deyarli har bir kitob yoki maqolasida, albatta, yangi bir qarash yoki yangicha bir ilmiy talqin manaman deb turadi.

Yer yuzidagi, kattadir-kichikdir, deyarli barcha tillarning negizini grammatika va so'z boyligi tashkil etadi. Zotan, turkiy til grammatikasining rasoligi juda ko'p g'arb olimlarini hayratga tushirgan. Qadimgi turkiy tilning tarang mantig'i-yu raso qoidalari, so'ngi yo'q sinoatlari haqida ulkan olmon allomasi, sharqshunosi Maks Myuller shunday degan edi: "Turkiychaning grammatika qoidalari shu qadar bemisil va go'zaldirkı, bu tilni tilshunos olimlarning bir hay'ati shuur bilan vujudga keltirgan deb o'ylash mumkin". Ma'lumki, Markaziy Osiyodagi, Turkistondagi hozirgi turkiy tillarning shakllanishida chig'atoycha (o'zbekcha) alohida o'rın tutgan. Mazkur til uzoq vaqtlar bu ulkan hududda adabiy til vazifasini bajarganligi ham sir emas. Bu hol o'zbek tilining nufuzi eskidan baland bo'lganini ko'rsatadi. Bularni

juda yaxshi bilgan G'anijon Abdurahmonov o'z ilmiy faoliyatida turkiy tillarning, xususan, o'zbek tilining grammatikasi, ayniqsa, sintaksisi tadqiqiga alohida e'tibor bergan. O'zbek tilshunosligida qo'shma gap sintaksisi asoslarining mukammal nazariy tarhi bevosita G'anijon Abdurahmonov tomonidan yaratilgan.

O'zbek tilshunosligining katta yutug'i sifatida e'tirof etilgan, O'zFA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari tomonidan yaratilgan ikki jildli "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va ikki jildli "O'zbek tilining grammatikasi" (1975) asarlarida G'anijon Abdurahmonovning mazkur nazariy qarashlari o'z aksini topgan. Professor Abdulhamid Nurmonov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Ilgari gaplar obyektiv voqelikni ifodalashi va predikativ belgisiga ko'ra dixotomik tamoyil asosida ikki guruhga – sodda va qo'shma gaplarga ajratilgan bo'lsa, keyingi ikki asarda gaplar ana shu belgisiga ko'ra politomik tamoyil asosida sodda, murakkab va qo'shma gaplarga ajratildi. Sodda va qo'shma gaplar yuqoridagi belgilarga ko'ra zidlalishning ikki qutbida tursa, murakkab (murakkablashgan) gaplar bu zidlanuvchılardan har ikkisinin muayyan belgilarini o'zida namoyon etuvchi oraliq holat qilib ko'rsatiladi. Bu fikr G'anijon Abdurahmonov tomonidan 1971-yilda Moskva-da nashr etilgan "Turkiy tillar tuzilishi va tarixi" to'plamidagi "Murakkablashgan gaplar sintaksisi" maqolasida aks etdi" (Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: "O'zbekiston", 2002. –B.205).


Tilshunosligimizda "bog'lovchisiz qo'shma gap" tushunchasining yuzaga kelishi ham bevosita G'anijon Abdurahmonov nomi bilan bog'liqdir. O'zigacha ilmiy o'rganilmagan va tilshunosligimizda aytarli ta'riflanmagan mazkur sintaktik birliklarni atroflicha tadqiq etib, ana shunday tuzilmalarning o'zbek tilida mavjudligini asoslab berdi va bevosita ilmiy muomalaga olib kirdi. Tilimizning tarixi-yu bugunini, uning rivoj-u ravnaq yo'llarini juda teran bilgan hassos tilshunos o'zining professor Sharif Shukurov bilan hammualliflikda yaratgan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" kitobida bog'lovchisiz qo'shma gaplarni shunday ta'riflagan: "Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qo'shma gaplarning ibtidoiy formasidir. Buning sababi shuki, bog'lovchi ishtirokisiz, faqat intonatsiya yordami bilan bog'la-

nish qo'shma gap tuzishning eng oddiy usulidir". Shubhasizki, mazkur kitobning yaratilishi o'zbek tilini diaxron tadqiq etishni yanada yuqori pog'o-naga ko'tardi.

G'anijon Abdurahmonov qadimgi va eski turkiy tili bo'yicha ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. U tarixiy tilshunoslikning fidoyi namoyandasi sifatida tarixiy manbalarni tadqiq etish va ularni nashr qilishda ham faollık ko'rsatgan. Xususan, qadim tilimiz lug'at boyligining chin xazinaboni Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarining nashrga tayyorlanishi va indeks-lug'atining tuzilishi (1960–1967), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari nashr etilishida (1971) uning hammuallif, mas'ul muharrir sifatidagi xizmatlari salmoqliidir. Keyinchalik ham G'anijon Abdurahmonov bu manbalar ustida ishlashni davom ettirdi va 2010-2011-yillarda hamkorlikda "Qutadg'u bilig" asari qo'lyozmalari asosida 5 jildli ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab, ruscha tarjiması bilan e'lon qildi.

Chinakam ma'nodagi sinchi turkiyshunosning "Eski turkiy til sintaksisi bo'yicha tadqiqotlar (XI asr)" kitobining rus tilida Moskvada nashr etilishi (1967), akademik Alibek Rustamov bilan hamkorlikdagi "Qadimgi turkiy til" (1982) kitobining nashr qilinishi o'zbek turkiyshunosligini yangi bosqichga ko'targanligini e'tirof etmaslik mumkin emas.

Til tarixi va tilshunoslik ilmining benazir bilimdoni sifatida G'anijon Abdurahmonov o'zbek adabiy tilining tarixini davrlashtirishday muazzam va murakkab masalaga ham jiddiy e'tibor bilan qaragan. Olim o'zigacha bo'lgan turli davrlarda turli olimlar tomonidan ilgari surilgan til tarixini davrlashtirish bo'yicha qarashlarini tahlil qiladi va o'zining bu boradagi ilmiy asoslangan, ishonchli tarixiy-lisoniy dalillar taqozosi o'laroq o'zbek tili tarixini davrlashtiradi. U "o'zbek adabiy tili tarixida quyidagi davrlar ajralib turishi"ni ta'kidlaydi: I. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr). II. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha). III. Eski turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha). IV. Eski o'zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha). V. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrdan XX asrning boshlarigacha). VI. Hozirgi zamon o'zbek tili. Tabiiyki, bu davrlar ham tarixiy, ham tegishli lisoniy dalillar asosida batafsil tavsif va ta'rif qilingan. Ta'kidlash joizki, olimning



o'zbek adabiy tili tarixini bunday davrlashtirishi turkiyshunoslikda e'tirof etilgan.

Tilni tuganmas sir-u sinoat olami deb bilgan G'anijon Abdurahmonov badiiy asar tilini o'rganish, tadqiq etish zaruriyatini hamisha ta'kidlab kelgan, til o'zining badiiyat bobidagi butun injaliklarini to'lasicha namoyon qilmog'i uchun badiiy matnday sarhadsiz maydonga kirmog'i tabiiy ekanligini yaqqol ko'ra va ko'rsata olgan filologiya donishmandidir. O'tgan asrning 60-yillaridayoq maktab ta'limida ham, oliy maktablarning tegishli yo'nalishlarida ham badiiy asar tilini o'rganishning favqulodda muhim ekanligini alohida ta'kidlagan. Ta'lim jarayonlarining hamisha ichida (vazir, rektor, professor maqomlarida) bo'lgan olim G'anijon Abqdurahmonov "Adabiy asar tilini o'rganish haqida" nomli maqolasida shunday yozgan: "Shuni esda tutish kerakki, asarning tili asarning mazmunini tahlil qilgandan so'ng emas, balki uning mazmuni bilan barobar olib borilishi zarur... Yozuvchi umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitadi, mukammallashtiradi. Yozuvchining mazkur imkoniyatlardan qanday foydalanганиni o'rganish asosiy vazifalardan biridir". Olim bunda asarning sintaktik strukturasi bilan bog'liq kuzatishlarni olib borish, nutqiy uslub va uslublarni ko'chirish muammolarini tadqiq qilish, yozuvchining jonli xalq tilidan foydalanlik darajasini aniqlash, yozuvchi

yashagan davrni e'tiborga olish kabi masalalarni ham nazarda tutish lozimligini ta'kidlaydi.

Mammuniyat bilan aytish lozimki, G'anijon Abdurahmonov butun umri davomida ustoz degan behad sharaflı nomni adoqsiz huzur bilan yelkalab o'tdi. Ustoz oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va o'rta maktablarda til o'qitish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha ham samarali mehnat qildi. Uning oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun yozgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili. II qism. Sintaksis", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis", "O'zbek tili grammatikasi (sintaksis)", "Qadimgi turkiy til", nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yozgan "O'zbek tili va adabiyoti", akademik litseylar uchun yozgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", o'rta maktablarning X–XI sinflari uchun yaratgan "Ona tili" darsliklari bir necha yillar mobaynida qayta-qayta nashr qilinib, hozirgacha ham yoshlarni o'zbek tilining sohir xazinasi bilan oshno qilib kelmoqda.

Ulug' ustoz, tilimiz sinoatining chinakam sinchisi akademik G'anijon Abdurahmonov qoldirgan benihoya rangin va zalvarli ilmiy meros hali juda ko'p minnatdor shogirdlar shuurini nurafshon qilaveradi.

Nizomiddin MAHMUDOV,
O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti direktori,
filologiya fanlari doktori,
professor

TARIXDAN SADO

Uzoqqa borib o'tirmaylik, so'nggi ikki asrda o'zgalar tomonidan yozilgan siyosiy-iqtisodiy sohaga oid esdaliklar, sayohatnomalar, ilmiy tadqiqotlarga ishonadigan bo'lsak, yaqin o'tmishda text so'ragan xonlar-u amirlarimiz faqat "el-yurtni talagan" bo'lib chiqadi. Qo'yoki, ular zulm bilan raiyatdan turli soliqlarni undirgan va yig'ilgan g'aznani maishatlariga ishlatgan. Hatto "zulmkor xonlar hisob-kitobni bilmagan, o'zlari, atrofidagi amaldorlar, joylardagi ulus oqsoqollari raiyatdan yig'gan soliqlarni parokanda bir tartibda ishlatgan", deyishgacha boradigan "tadqiqotchi"lar ham yo'q emas. Bu noxolis "tadqiqot"lar keyinchalik tarix darsliklariga ko'chib, xon-u amirlar "olabo'ji" – yeb to'ymas kishilar bo'lganiga boshqalarni ishtontira oldi ham.



Xo'sh, haqiqatan ham shundaymidi? Keling, bu savolga xolis javob topish uchun Xiva xonligida g'azna hisob-kitobi qanday yuritilganiga oid hujjatlar bilan tanishaylik. Xonlik 1873-yilning javzosida chor hukumati tomonidan kuch bilan zabt qilingach, mustamlakachi so'shin safida kelgan olimlar birinchi navbatda ko'hna Arkdagi xonlik hujjatxonasidagi barcha qo'lyozmalarni qo'lga kiritgan. Ivanov degan olim o'rdada saqlanayotgan soliq va xarajatlar to'g'risidagi daftarlarning aksar qismini olib, keyinchalik Saltikov-Shedrin nomidagi davlat kutubxonasiga topshirgan. Akademik Bartoldning shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo'lyozmalarning katta qismi aynan Xiva xonligiga tegishli bo'lgan. Bu hujjatlarining ko'pi saroyda yuritilgan moliyaviy daftarlardan iborat.

Xonlik mustamlaka davrida ham, qadim odatga ko'ra, g'azna hisob-kitobini muntazam yuritib borgan. 1873-yildan 1920-yilgacha xonlikda yuritilgan moliyaviy hujjatlar jami 333 daftardan iborat bo'lib, bu hujjatlar O'zbekiston Markaziy arxivining 125-fondida saqlanmoqda.

Bosqin davrida ko'pgina daftarlari yo'q bo'lib ketgan, ularni oddiy askar va zobitlar ko'ngilxushlik uchun yoqib yuborgan yoki keyinchalik sotish maqsadida saqlab qo'ygan. Saqlanib qolgan daftarlardagi yozuvlar xonlikda qat'iy moliyaviy hisob-kitob yuritilganini isbotlaydi. Aholisi

600 ming kishidan oshgan xonlikda turli soliqlarni yig'ish va xazinaga topshirish qat'iy tartib asosida tashkil etilib, har bir hudud va soha bo'yicha soliq yig'ishga mas'ullar tayinlangan. Daftarlarni yuritgan shaxslarning ism-sharifı, vazifasidan kelib chiqsak, soliq (solg'u)larni yig'ishga jami 36 kishi mas'ul etib belgilangani aniq bo'ladi. To'plangan soliqlarni g'aznaga topshirish jarayoni saroydagi ikki amaldor nazoratida bo'lgan. Ularning biri xonlikning kunchiqar, yana biri kunbotar tomonidan yig'ilgan soliqlarni kiritim qilgan.

Soliqlar "machit qavmi" tarzidagi hududiy birlik asosida undirilgan. 1850-yillarda xonlikda bir yarim mingga yaqin masjid qavmi bo'lib, soliq daftarlardagi raqamlardan har bir hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni bilib olish mumkin. Xonlikning daromadlari va soliq miqdorini aniqlashda bu hujjatlar katta ahamiyatga ega. 754 masjid mehtarnıng, 794 masjid esa qushbегining ixtiyorida bo'lgan. 1856-yilda yer solig'i sifatida xazinaga 40 ming 993 tillo to'lagan 23 ming 11 xonadon borligini ko'ramiz. O'sha davrda har bir xonadonda o'rtacha besh-olti odam istiqomat qilgani e'tiborga olinsa, 600 ming kishi kamida 100 ming xonadon atrofida bo'lishi kerak-ku, ammo, nega faqat ularning to'rtidan biri soliqqa tortilgan? Bu o'sha

davrda amalda bo'lgan imtiyozlar bilan bog'liq. Xonlikda soliqdan ozod qilingan aholi qatlami ro'yxati ancha katta. Ularga yetimlar, navkarlar, imomlar, sayyidlar avlodlari va boshqalar kiradi. Bundan tashqari, bozorlardan, chorvadorlardan, hunarmandlardan tushadigan soliqlar ham anchagina. Bu yoqda boj undiruvlari ham bor.

Xo'sh, o'tgan zamon tarixchilari tili bilan aytsak, "zulm bilan to'plangan soliqlar"dan tushgan mablag'lar qanday istifoda qilingan?

Xonning devonbegisi Matmurod yuritgan chiqim daftarida shunday yozuvlarga ko'zimiz tushadi: "Qo'qonlik to'raning bir oylik qo'nuqi uchun 20 tillo berildi"; "Muhammad Nazir oshpazga bir oylik o'tini uchun 5 tillo berildi"; "Eshboy suvchining o'g'liga bir tillo berildi";



"Qora do'g'malarning (do'g'ma yetim va qul ma'nolarida keladi) bir oylik qo'nuqi uchun 20 tillo berildi"; "Safar oyida tabib boboga 2 botmon objo'sh (mayiz) uzum berildi" va hokazo.

Sarf daftarlarda qiziq yozuvlar ko'p uchraydi. Misol tariqasida ayrimlarini keltiramiz: "Qayiq'larning shikasti-rastiga o'n olti tanga xarajat bo'ldi"; "Oqsoqollarning oylıqi uchun besh yarim kirvanka choy berildi – yigirma bir tanga"; "Mazkur oynıng yigirma sakkizinchisi seshanba kuni llonlidog'i yimralini sangariga ketgan shamxolchi Xudoybergan Tosh yuzboshining qirg to'qqiz

navkariga qirg to'qqiz tillo berildi, o'ziga ham uch tillo berildi"; "Etuk devonasiga (etik so'rab kelgan devonaga) bir kujilli etik matosini 12 tangaga olib kalandarga (hunarmandlarning har bir sohasiga mas'ul shaxs) berildi"; "Karbaloı bog'bonga 15 tillo berildi"; "Rahmat baqqol anor keltirganda ikki tillo berildi"; "Afg'onlarga besh tillo berildi"; "2 oyda ushoqlab olingan sirka 4 tillo"...

Xon yashaydigan va yurt so'raydigan Ark uchun ketgan xarajatlar ipidan ignasigacha yozib borilgan. Ular orasida xon oilasi, mehmonlar uchun har kunlik berilgan oziq-ovqat miqdori, xon va uning oila a'zolari uchun tikiladigan kiyim-bosh uchun qancha mato ketgani, hatto uning ov miltig'i uchun

g'lof olingani ham alohida sanasi va narxi bilan qayd etilgan.

Ramazon oyida hayr-u ehson uchun sarf qilingan xarajatlar ro'yxati anchagina uzun. Bunda e'tiborga loyiq bir yozuv saqlanib qolgan: "Ogahiy saroyga "Ramazon" aytib kelganida, unga o'n tillo olib berildi". Ayni shu yozuvni sovet tarixchilari "ulug' shoirni og'ir hayot tilanchilik qilishga majburlagan", "saroyda ramazon aytib, tilanchilik qilish-gacha borgan" kabi yolg'onlar bilan o'rab, xon va ularning amaldorlariga nohaq tosh otishdi.

Aslida, Ogahiy hazratlari xonlikda uzoq yillar mirob lavozimida ishlagan, qazuv

vaqtida tasodif otdan yiqilib, mayib bo'lib qolqach, qolgan umrini ijodga bag'ishlagan, xon taklifi bilan ko'plab asarlarni tarjima qilgan. Bu tarjimalari uchun unga yaxshi haq to'langan. Bundan tashqari, Ogahiyning qal'a yaqinida bobomeros kattagina yeri va bog'i ham bo'lib, bundan salmoqli daromad olgan. Saroyga "Ramazon" aytib borishini shoirning qadim qadriyatlariga bo'lgan hurmati o'rnida qabul qilish kerak.

Yana sarf-xarajat mavzusiga qaytamiz. Kattagina saltanat taxtida o'tirgan xonga beriladigan qand g'aznadan xarajat sifatida dafarga qayd qilib borilganiga ishonasizmi? Mana tarixiy hujjatlar: "Seshanba kuni hazratimiz Ankarik hovliga chiqqonlarida Muhammad Amin xalifaga bir qand berildi,

tarojga yo'l qo'yilmaganidadir. "Sarf-xarajat daftar"lari xonlikda hisob-kitob tizimi asriy tarkib topgan holat bo'lgani, bular shunchaki tarix uchun emas, aslida, adolat mezoniga darz yetmasligi uchun muntazam yuritilgani asl haqiqatdir.

Xon va amaldorlar g'azna hisob-kitobini muntazam yuritish bilan cheklanib qolmasdan, mas'ullardan bu borada hisob so'rab turgan. Hisob juda qattiq bo'lgan – salgina talon-taroj holati aniqlansa, mas'ullarning (devonbegi, xazinabon va boshqalar) boshlari kesilgan, bor mol-mulki davlat foydasiga musodara qilingan.

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar bilan tinimsiz savashlari davrida o'zga tuproqlarda vaqtincha katta-yu kichik saltanatlar tuzgani tarixdan ma'lum. Deyarli ko'chmanchi hayot kechirgan bo'lsa-da, u devondagi barcha moliyaviy hisob-kitoblar adolatli yuritilishini o'zi nazorat qilganini tarixchi Nasafiy bayon qiladi.

Erinmasdan tadqiq qilsangiz, soliq daftarlarda keltirilgan raqamlar, ya'ni yig'ilgan soliq miqdori sarf-xarajat daftarlardagi raqamlarga to'la mos tushishiga guvoh bo'lasiz. Hisob-kitobni qat'iy, adolatli yuritish raiyatda hukmdorning adolatpesha ekaniga ishonch uyg'otishi bilan bir qatorda, uning taxtdagi umri uzayishiga ham zamin yaratgan, ulus tinch va farovon yashashini ta'minlagan. Tarixda katta-kichik saltanatlarida to'satdan ro'y beradigan silkinishlar – isyon yoki taxt almashishlar zamirida ham aynan g'aznaning (devonbegi, xazinabon va boshqalar) qilinishi sabab bo'lganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ayni paytda, barcha zamonlar va saltanatlarida johil bandalar g'aznaga ko'z olaytirib, nafsiga erk bergani kabi holatlar bo'lganidan ham ko'z yummaymiz.

O'zgalari tomonidan yozilgan tariximizni qayta tadqiq qilish, asl haqiqatlarni yuzaga chiqarish va bundan xalqni xabardor qilish vaqti allaqachon yetgan.



MILLAT FIDOYILARI

1938-yilning 5-oktyabrda hukmi e'lon qilingan, biroq 4-oktyabrdayoq yoppasiga otib tashlangan 36 nafar vatandoshimiz to'g'risida har gal o'qiganimizda, jon-tanimizga titroq kiradi. O'ttiz olti qurbonning xalqimiz taqdiriga doxil o'ttiz olti hikoyati bor.

Qudratulla Yunusov 1896-yili Toshkent shahrida ishchi oilasida tug'ildi. Uning bolalik davri jadidlar faoliyati shahri azimda keng quloch yoyib borayotgan vaqtlarga to'g'ri keldi. Xususan, bu paytda, Abdulla Avloniyning "Tarjimayi holi"dan ma'lum bo'lishicha, 1904-yilda Toshkentda yashirin "jadidlar to'dasi" ish boshlaydi. 1909-yil 12-mayda Munavvar qori Abdurashidxonov, Mulla Abdulla Avlonov (Avloniy), Bashirulla Asadillaxo'jayev, Toshhoji Tayoqboyev, Nizom qori Husanov muassisligida "Jamiyati xayriya" tashkil etiladi. Mazkur jamiyat bir yil keyin Buxoroda tuzilgan "Tarbiyai atfol" jamiyati bilan birga iste'dodli yoshlarni chet mamlakatlarga o'qishga yuborishdek xayrli ishni boshlab yuboradi.

So'ngra, 1913-yili "Turon" jamiyati, 1914-yili esa Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Muhammadjon Poshshaxo'jayev, To'lagan Xo'jamiyorov (Tavallo) va boshqalar muassisligida "Nashriyot" shirkati ishga tushadi. Mazkur ma'rifiy tashkilotlarning tuzilishi, bundan avvalroq yangi usul maktablarining ochilishi, o'zbek tilida qator gazetalarning bosila boshlashi Turkistonda bir maromda kechayotgan hayot dengizini to'qinlantirib yuboradi.

Toshkentlik shoir va yozuvchilar "Al-Isloh" jurnalida, "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Sadoyi Turkiston" gazetalarida o'z asarlarini chop etish imkoniga ega bo'ladi. Kitob nashr qilish ishlari ham yo'lga qo'yilib, turli bayoz va majmualar chiqa boshlaydi.

Toshkentdagi ushbu ma'rifiy muhit, jadidlik ruhi Qudratullaning shaxsiy

kamolotida ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Garchi u ota-onasi ko'magidan bahramand o'sgan bo'lsa-da, jamiyat sharoiti bolani barvaqt mehnatga olib kirdi: oldiniga oddiy ishchi, so'ng qadoqlovchi va kotib bo'lib ishladi. Shunga qaramay, o'qib-o'rganishga doim vaqt topdi, ishtiyoqini so'ndirmadi. Tillarni puxta o'rgandi, oliy ma'lumotga ega bo'lib, nufuzli bibliograf, turk-tatar tillari



Qudratulla Yunusov (1896-1938)

bo'yicha mohir tarjimon hamda muharrir bo'lib yetishdi. Shu tariqa, sekin-asta o'zining ilmiy-amaliy faoliyatiga xos maskan - o'sha davrda SSSR miqyosida xalqaro bibliografiya markaziga aylangan Butunittifoq kitob palatasida ishlay boshladi. Qudratulla Yunusovning Moskvada ana shu nufuzli muassasadagi mehnati uning ma'rifatparvarlik ruhini charxlab, jadid an'analarga sadoqatini kuchaytirdi. Turli tillardagi adabiy va ilmiy manbalar bilan tanishgani sayin, tasavvuri yanada kengaydi, o'z millati taqdiri uchun ma'rifatning qanday beqiyos qudratga ega ekanini anglay bordi. 1915-yilga kelib Nizomiddin

Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Salohiddin Muftiy, Shokirjon Rahimiy, Miraziz kabi yetakchi ziyolilar tashabbusi bilan "Turon" jamiyati faollashadi va u jadid mafkurasida hamda milliy o'ziga xoslikni targ'ib etuvchi muhim markazga aylanadi. Qudratulla Yunusov ham aynan shu davrdan boshlab mazkur jamiyat faollari safiga qo'shiladi.

1917-yili Rossiya davlati ro'y bergan o'zgarishlar Turkiston o'lkasiga ham ta'sir qilib, boshboshdoqlik va siyosiy beqarorlikka olib kelgani, Turkiston o'lkasida sovet tuzumini qaror toptirish uchun bolsheviklar mahalliy hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallagan tarixdan ma'lum. Shu bois, milliy davlat g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi mahalliy ziyolilar siyosiy maydondan mutlaqo chetlatilgan edi. Oqibatda, milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan yashirin tashkilotlar paydo bo'la boshlaydi. Ana shulardan biri 1919-yili Munavvar qori Abdurashidxonov va Sadriddin-xon Sharifxo'jayev tashabbusi bilan Toshkentda tashkil topgan "Milliy ittihad" edi. Tashkilot tez orada milliy ozodlik g'oyasi markaziga aylanib, 1920-yilning kuzida Qudratulla Yunusov ham unga qabul qilinadi.

1921-1922-yillarda "Milliy ittihad" tarkibida aloqachi sifatida faoliyat yuritib, avval Toshkentda Munavvar qori bilan uchrashish orqali tashkilot ko'rsatmalarini qabul qilib turadi. U har bir topshiriqni bajarish jarayonida aloqalar doirasini bosqichma bosqich kengaytirib borar, shu orqali Sa'dulla Tursunxo'jayev hamda Abduqodir Qushbegiyev bilan muloqotga kirib, Buxoroda ham ishonchli bog'lanish nuqtalariga ega bo'ladi.

Ayni shu davrda Toshkentdagi "Turkiston shirkati" magazini asosiy aloqa markaziga aylanadi va 1922-1923-yillar davomida shu yerda shifrlari xabarlarini qabul qilish va yetkazish ishlari Yunusov uzluksiz ishtirok etadi. 1923-yildan jarayon Buxoroga ko'chadi, Yunusov bir necha marta ushbu shaharga safar qilib, Ali Rasulov xonadonida o'tgan yig'ilishlarda shaxsan shifrlari ma'lumotlarni topshirib, qabul qilib boradi. Shu orqali u Buxoro tarmog'ining ham ishonchli aloqa bo'g'iniga aylanadi.

1924-yilga kelib, qahramonimiz ishtirokida ma'lumot almashinuv

jug'rofiyasi yana kengayganini kuzatamiz. Bu gal aloqa zanjiriga Moskva yo'nalishi ham qo'shiladi. Qudratulla Yunusov Temirqul va G'ulom Ikromov orqali Moskvadan kelgan ma'lumotlarni Toshkent markaziga yetkazar, shu bilan bir qatorda, Toshkentdan Moskvaga xabarlarini ham muntazam uzatib borardi. 1921-1924-yillar davomida u Toshkent, Buxoro va Moskva o'rtasida axborot aloqasini uzluksiz ta'minlab turgan shaxsiga aylanadi. Bu jarayonda Munavvar qori, Sa'dulla Tursunxo'jayev, Abduqodir Qushbegiyev, Ali Rasulov, Temirqul va G'ulom Ikromov o'z yo'nalishi, hududi doirasida muhim vazifani bajargan bo'lsalar, Yunusov ana shu tarmoqlarni o'zaro bog'lab turuvchi mustahkam halqa edi.

Qahramonimiz 1931-yilda xizmat safari bilan Moskvaga yuborilib, garchi o'qish maqsadida bo'lsa-da, "Milliy istiqlol" tashkilotining o'sha yerdagi tarmog'i bilan faol bog'lanadi. U yerda Abdulhay Tojiyev, Muhtidin Tursunxo'jayev, Nazir Shoabdurasulov, Mirmuslim Sher-muhammedov va Yusuf Aliyev bilan bir safda ish olib boradi. Bu muhitda Yunusov faoliyati rasmiy ta'lim bilan cheklanmasdan, o'zbek talabalari orasida milliy ruhdagi suhbat va muhokamalar bilan boyidi: tarixiy xotira, o'zlik, Turkistonning kelajak maqomi kabi masalalar muntazam muhokama qilindi. Bu muloqotlar, ilmiy-badiiy bahs va milliy ruhni mustahkamlovchi suhbatlar yurtning kelgusi boshqaruvida ishtirok etadigan yosh kadrlarning o'zini anglashida g'oyat muhim edi.

E'tiborli jihati, Qudratulla Yunusov Moskvada Butunittifoq alfaviti bo'yicha komitet kotibi sifatida ham ishlaydi. Bu ish yangi alifbo, yangi ta'lim tizimi orqali xalqlar madaniyati va yozish usulini yangilash bilan bog'liq edi. Biroq ushbu jarayonda til, ma'rifat va ta'limga e'tiborning kuchayib ketishi sovet rasmiylari nazaridan chetda qolmadi. Ular bu ish ortida xalqning milliy o'zlikni anglash xavfini ko'ra boshladi. Bu esa keyinchalik Yunusov taqdiriga ham ta'sir etmay qolmadi.

1930-yillar oxiriga kelib, SSSRda siyosiy muhit keskinlashdi, ommaviy

ravishda "xalq dushmani" degan sun'iy obraz ishlab chiqildi. Natijada jadid ziyolilari, fikr sohiblari hamda mustaqil tafakkurga ega shaxslar keng qamrovli ta'qib va kuzatuv ostiga olindi. 1937-yil 28-avgust kuni Qudratulla Yunusov Moskvadagi yashash manzilidan hibsga olinadi. U avval Butirka qamog'ida saqlanib, so'ng 1937-yil 15-sentyabrda Toshkentga etap qilinadi.

Tergov davomida unga sovet hokimiyatini ag'darishga qasd qilish, chet el razvedkasi bilan aloqa o'rnatish, Qobuldagi ingliz konsulligi bilan shifrlari yozishmalar olib borish, Miyon Buzruk orqali inglizlar bilan aloqa qilish kabi bir qator ayblar qo'yiladi. Bu o'rinda uning "inglizlar orqali ikki adad yozuv mashinkasini keltirgani", "bir yarim yil davomida kvartirasida ingliz tili mutaxassisini saqlangani" va shunga o'xshash vajlar ham "dalil" o'rninga o'tadi.


Taqdirning achchiq haqiqati shundaki, Qudratulla Yunusov bor umrini bag'ishlagan barcha ezgu ishlari: ta'lim, tarbiya, tarjima, til islohati, talabalar bilan ma'naviy suhbatlar... bari bir kunda "jinoyat" sifatida ayblovga aylantiriladi. 1938-yil 5-oktyabrda Toshkentda o'tgan SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida Qudratulla Yunusov otuvga hukm qilinadi...

Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Shukrullonning xotiralari esga keladi: "O'ttizinchi, elliginchi yillarda xalqimizning minglab asl farzandlari begunohdan begunoh surgun qilindilar, hibsga olinib, otib tashlandilar. "Qamaldilar, otib tashlandilar", deyish oson! Ammo bu - qamalgan, otib tashlanganlarning oh-u nolalari, azob-u xo'rliklari, ularning xonavayron bo'lgan oilalari, bola-chaqalari, eridan ayrilgan ayollarning faryodlari, darbadarliklarini hamma ham bir dam ko'z oldiga keltirib, yurakdan his qila oladi, deysizmi?"

"Otib tashlandi!" Begunoh qatl qilinayotgan odamning holatini his qila olasizmi? Yo'q! Unga achinasiz, albatta, "attang" deysiz, ammo uning juvonmarg orzu-maqsadlari-chi?!"

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Islomsho Izmoshayev - 1892-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkiloti Buxoro bo'limining faol a'zosi. Mazkur tashkilotning topshirig'i bilan tashqaridagilar hamda Fayzulla Xo'jayev bilan yaqindan aloqada bo'lganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda "O'zbekbirlashuv"da maslahatchi bo'lgan. 4609-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Ergash Boyxonboyev - 1900-yili Namangan shahrida tug'ilgan. U 1921-yildan bosmachilar to'dasi qo'rboshi Omonpolvonning aloqa bog'lovchisi sifatida ayblangan. Ikromov va Boltaboyevlarning alohida ko'magidan foydalangani uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan, muddati 1937-yil 8-noyabrdan hisoblangan.

Usmon Yodgorov - 1903-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Ijtimoiy kelib chiqishini yashirgani uchun partiyadan o'chirilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti rahbariyati bilan aloqasi bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda "Stalin yo'li" gazetasi tahririyatiga kotiblik qilgan. Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik munosabatida bo'lgan, aksilinqilobiy guruh yig'inlarida ishtirok etgani, mag'lubiatchilik xarakterida she'rlar tarqatgani, Trotskiy, Buxarin, Tuxachevskiy va boshqa xalq dushmanlarini maqtatgani uchun O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-band va 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Salohiddin Muftizoda - 1886-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Eski maktab va madrasada tahsil olgan. "Grammofon" jamiyatida faoliyat yuritgan. Sa'diyning "Guliston" asarini o'zbekchaga tarjima qilgan. Ubaydulla qori Erqoziyev, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev davrasida bo'lgan. "Ulamo jamiyati" va "Turon" jamiyati a'zosi. "Tahqiqsiz sadoqat" maqolasini "Najot" gazetasida e'lon qilgan. Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga kirgan, muxtoriyat tugatilgach, bolsheviklar ta'qibidan Sibirga qochgan va ma'lum vaqt Tomsk shahrida yashagan. 1919-yili VKP(b) ga a'zo bo'lgan, 1925-yilgacha sovet idoralarida ishlagan. 1921-yili "Milliy ittihad" tashkilotiga kirgan va uning faollaridan biri sanalgan. Turkiston davriy matbuotida muntazam qatnashgan. 1932-yil 25-noyabrda O'zSSR davlat kino boshqarmasida ishlab turgan paytda qamoqqa olingan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 57/10-, 58/10-moddalari bilan sovet davlatiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 1933-yili 4-mayda unga qo'yilgan otuv hukmi 10 yil qamoq jazosiga almashtirilgan. 1992-yil 16-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi S.Muftiyzodani oqlagan.

Yo'ichiboy Toshmatov - 1882-yili Stalin rayoni Ro'zi mahallasida tug'ilgan. "Sho'royi Islom" aksilinqilobiy tashkilot a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. "Sho'royi Islom" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lganlikda, tez orada sovet hokimiyati yo'q bo'lishi to'g'risida ig'vo tarqatganlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-noyabrdan hisoblangan.

Abduqayum Madalimov - 1882-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar Toshkent shahrida yashagan. 1929-yili 6-noyabrda qamoqqa olingan. Bosmachilarni uy-joy bilan ta'minlashda, 1929-yili soliq to'lashdan bosh tortgan boylarni yashirganlikda, batraklarni jazolashda, siyosiy hayotda sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda RSFSR Jinoyat kodeksining 58/10, 59/3-moddalariga binoan 10 yil muddatga konslager qamoq'iga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi son).

JAHON AYVONIDA

G'OYIB BO'LGAN UCHOQ QIDIRILADI

Malaysia Airlines aviakompaniyasining Kuala Lumpurdan Pekingga uchgan MH370 reysi bo'laklarini qidirish uchoq g'oyib bo'lganidan 11 yildan ko'proq vaqt o'tib 30-dekabr kuni qayta tiklanadi, deb xabar bermoqda "Reuters" Malayziya rasmiylariga tayanib.



Bu jarayon 2025-yilning mart oyida boshlangan, ammo yomon ob-havo sharoiti tufayli aprel oyida to'xtatilgan qidiruv ishlarining davomi bo'ladi.

Kuala Lumpurdan Pekingga MH370 reysini amalga oshirgan Boeing 777 2014-yil 8-mart kuni radarlardan g'oyib bo'lgan. Borda 12 ekipaj a'zosi va 227 yo'lovchi, jumladan, Xitoylik 150 nafar, malayziyalik 50 nafar, shuningdek, Fransiya, Avstraliya, Indoneziya, Hindiston, AQSH, Kanada, Ukraina va boshqa mamlakatlar fuqarolari bo'lgan.

ARIZALAR KO'RIB CHIQLIMAYDI

AQSH prezidenti Donald Trump ma'muriyati xavf darajasi yuqori bo'lgan 19 ta davlatning barcha immigratsiya arizalarini ko'rib chiqishni to'xtatdi, deb yozmoqda "CBS News" AQSH fuqarolik va immigratsiya xizmatining (USCIS) ichki yo'riqnomasiga tayanib.

Qaror o'tgan hafta Oq uy yaqinida AQSH Milliy gvardiyasining ikki harbiy xizmatchisiga



qilingan hujum bilan bog'lanmoqda. Hujumda gumon qilinib, Afg'oniston fuqarosi qo'lga olingan.

Ro'yxatga Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlari, jumladan, Eron, Afg'oniston va Turkmaniston kiritilgan.

SUV TAQSIMLANDI

2026-yilda O'zbekiston Amudaryodan 22 mlrd kub metr, Sirdaryodan 3,3 mlrd kub metr suv oladi. Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo'jaligi muvofiqlashtiruvchi komissiyasi 2025-yil noyabrda Ashxobodda bo'lib o'tgan 91-yig'ilishi yakunlarini e'lon qildi.



Komissiya yig'ilishida mamlakatlar 2025-2026-yillarda bo'lajak vegetatsiya davrida suvdan qanday foydalanishni kelishib oldi.

Amudaryodan 2025-yil oktyabrdan 2026-yil oktyabrgacha suv olishning umumiy limiti qariyb 55,4 mlrd kub metr miqdorida belgilangan. Shundan 15,9 mlrd kub metri sovuq davr - oktyabrdan aprelgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Tojikistonga yiliga 9,8 mlrd kub metr, Turkmaniston va O'zbekistonga 22 mlrd kub metrdan ajratilgan.

Sirdaryo bo'yicha vegetatsiya davrida suv

olishning umumiy limiti 4,219 mlrd kub metrni tashkil etadi. Qozog'iston "Do'stlik" kanali orqali 460 million kub metr, Qirg'iziston - 47 million, Tojikiston - 365 million kub metr suv oladi, asosiy ulush O'zbekistonga tegishli - 3,347 milliard kub metr.

BOSH VAZIRGA HUKM

Kiyevning Pechyorskiy tuman sudi Ukrainaning sobiq bosh vaziri Nikolay Azarovni sirdan barcha mol-mulki musodara qilingan holda 15 yilga ozodlikdan mahrum qildi, deb yozdi "Suspiine".



Hukm 25-noyabrda chiqarilgan, ammo ish materiallari faqat 2-dekabrda e'lon qilindi, deb ta'kidladi nashr. Bugun sud hukmiga ukrainalik jurnalistlar e'tibor qaratdi.

Sud Rossiya bo'lib turgan Azarovni davlatga xiyonat va konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga urinishda aybdor deb topdi.

3 YILDA 200 MING KASALLIK



Hindiston poytaxti Dehli'dagi oltita davlat kasalxonasida 2022-2024-yillar oralig'ida 200 mingdan ortiq o'tkir respirator kasalligi

holatlari qayd etildi. Bunga butun mamlakat bo'ylab havo ifloslanishi darajasining oshib borayotgani sabab bo'lmoqda. Bu haqda Hindiston hukumatiga tayanib "BBC" xabar berdi.

Hukumatning parlament yig'ilishida ma'lum qilishicha, mazkur uch yil davomida 30 mingdan ziyod odam nafas yo'llari kasalliklariga chalinib, kasalxonalarga yotqizilgan. Dehli va uning atroflarida zaharli havo, ayniqsa, qish oylarida takrorlanuvchi muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda Dehlining havo sifati indeksi - o'pkaga tiqilib qolishi mumkin bo'lgan PM2.5 kabi mayda zarrachalarni o'lchaydigan ko'rsatkich Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan me'yordan 20 barobardan ko'proqqa oshib ketgan.

PARANJ I UCHUN JARIMA

Qozog'istonda jamoat joylarida niqob, burqa va paranji kiyganlar jarimaga tortilishi mumkin. Bu haqdagi qonun parlamentning quyi palatasi - Majlisda ikkinchi o'qishda qabul qilindi.



Bu qonun jamoat joylarida yuzni yopuvchi kiyim kiyganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

Qonun bilan Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar kiritiladi. Yuzni to'sadigan kiyimda jamoat joyida birinchi marta ko'ringan odamga ogohlantirish beriladi, takroran sodir etilsa - 10 oylik hisoblash ko'rsatkichlari miqdorida jarima solinadi. Bu taxminan 40 ming teng yoki 80 dollarga teng.



HAJV

YAQO TUTAMLAB

Noxush kunlardan birida tilpo'nda pidbo'l ko'rib o'tirib, tanaffusda dunyoga ham bir bo'ylab qo'yay deb ivirsib, bir juft yuvuqsizning nahslashgan gurgunini bilmay bosib oldim. Taassurot budur:

Istig'for aytganim aytgan:
erkakmi bul, ayol yoki,
Ko'rganim alvasti tushmu yo,
ajina xayol yoki.

IT'dan tarqagan nusxasi
muxannasdan bichim olgan,
Bul erlarga so'roq yoki,
xotunlarga savol yoki.

Chalib surnay – chirmandalar,
shuhratlanur sharmandalar,
Yuvuqsizlar arzandalar...
uyat topdi zavol yoki.

Hebbimmijozga bir qarang,
yelkada adrası tarang,
G'amzada ustozı farang,
qiyiqmu bu ro'mol yoki?

Qiyomatdan xavotirman,
kalima aytayotirman,
Bo'lurmu hech ho'kizjonga
ho'kiz jufti halol yoki?

Iyak silliq, ko'sa deysan,
zulfin qizlar ko'rsa deysan,
Saqolin qirtish aylagondir yo,
valadi besaqol yoki.

So'qir ko'zga oyna nevchun,
nigohda na ma'ni, mazmun,
Yaqin sharqda haydaganlar,
itargandir shimol yoki.

Buyuklarga osilsam gar
nom qozongum deydi zang'ar,
Harom o'lib xor bo'lursan,
bor, ko'zimdan yo'qol yoki!

Muborak taxallusimni bul palidlarga baxshida la'natnomaga
tirkamaslik uchun she'rga qo'shmay, yengimni burnimga qalpoq
aylab, qavs** ichinda tajang bitdim.

* Ijtimoiy tarmoq
** dekabrning eskicha nomi bo'lsa kerak.

Sattor SUROB



TARMOQLARDA NIMA GAP?

OSMONGA
TUPURMA!

“Toshoyna” podkastida
Hazratimiz Navoiyni haqoratlagan
adras kiygan “tarixchi” Baxtiyar
Alimdjanovni Hazrat Navoiy
nomidan sudga bermoqchi
edim. Lekin Bahodir Qobul uni
allaqachon sudga berganini menga
aytishdi. Shuning uchun sudga
berishdan tiyildim.
Bu “tarixchi” ushbu ko'rsatuvda
Hazrat Navoiy g'azalidagi “Meni
men istagan o'z suhbatig'a
arjumand etmas” misrasini
“Navoiyga sifatli s**s yetishmagan”
deb talqin qilgan.

Ey Baxtiyar Alimdjanov! Sening
bu gaping Jinoyat kodeksining 140-
va 156-moddasi bandlariga tortadi.
140-moddadagi Haqorat (Internet
orqali sodir etilgan), 156-modda-
ning 1-milliy qadriyatlarini tahqir-
lash; 2-xalqning madaniy ramzlariga
nisbatan nafrat uyg'otish; 3-jamoa-
tad ziddiyat chiqarish kabi bandlar
bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi.
Bu jinoyatga jazo esa 3 yildan 10
yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdir!

Ey Baxtiyar Alimdjanov! Sen
Hazrat Navoiyni xohlaganingcha
tushunaver! O'zingni qariching bilan,
o'zingni juning bilan o'chayver.

Hech kim mone emas. Lekin buni
ommaga oshkor qilishning sening
aybing, sening xatoying, sening
jinoyatingdir! Hatto ateistning
ham ateistligiga hech kim mone
bo'lmaydi. Qachonki o'sha dahriy
muqaddas otlarni tahqirlasa keyin
javobgarlikka sabab bo'ladi. Sening
ishing ham xuddi shundaydir.

Ey Baxtiyar Alimdjanov! Filologiyada
“...o'z suhbatig'a arjumand etmas”
misrasidagi “suhbat” so'zining yuzdan
ortiq talqini bor. Hazrat Bahouddin
Naqshband “Biz nima topsak, suhbat-
dan topdik, biz nimaga erishgan
bo'lsak, suhbat orqali erishdik”,
deganidek Hazrat Navoiy “Nasoyim
ul-muhabbat” asarida “suhbat”ning
bir qancha kamolot darajasini sanab
o'tganlar. Tasavvufni zarracha bilga-
ningda edi, shu aytgan gapingga qattiq
uyalgan bo'larding!

Ey Baxtiyar Alimdjanov! Agar
virtual arxeolog bo'lib Google keshini
kovlab ko'rsang, Hazratimiz Navoiy
uylanmagani uchun (astag'firulloh,
hatto yozishga uyali ketyapman)
**** deb haqorat qilgan qalang'i-
qasang'ilarni ham ko'rsan. Yana bir
“Bobomurod Abdulla” degan senga
o'xshagani bor, qachon qarasam,
Hazrat Navoiyni besoqolboz, Imom

Shukur JABBOR
Facebook

Buxoriy “Biqqi”, Naqshbandni “naqsh-
bandit” deb haqorat qiladi.

Ana shu sen va senga o'xshagan-
larni yig'ib kelib doshqozonga solib
qovursa, senlardan O'ZMU filologiya-
sida o'qiydigan bitta oddiy talabaning
ingichka barmog'i ham chiqmaydi!
Demoqchimanki, senlarni oddiy tala-
bachalik ilming, farosating, aqling yo'q!
Bu senlarni so'zga ustaliging – o'zingga
o'xshagan o'ta omi, savodsiz, ko'mu-
ridlarni mahliyo qilishi mumkin, xolos.

Allohga bo'lgan ishqni tushun-
masang, shu ishqning tajallisining
soyasining soyasining soyasi qalbga
tushsa odamni devonayi Mashrabga
aylantirib qo'yishini tushunmasang
yoki donishmand Navoiyga aylan-
tirib qo'yishini tushunmasang, bu ishq
oldida bashariy ishq, ya'ni uylanish bu
huv ellig'inch darajadagi narsa ekanini
tushunmasang – shunaqa o'zingni
qariching bilan baho berib dovdirab
yuraverasan-da!

Sen va senga o'xshaganlar vaqt
charxpalagida uzog'i bilan 4-5 yilda
tushib qolasan, lekin Hazratimiz to
Qiyomatgacha sevib o'qiladi. O'qilgani
sari mag'zidan yangi ta'mi chiqib
kelaveradi!

JADID SHIFOXONASI

YURAKDAN GAPIRAMIZ!

Nodira SHARIPOVA,
oliy toifali kardiolog:

– Ba'zan odamlarimizning sog'li-
giga befarq va ishonuvchanligi
meni hayron qoldiradi. Deylik,
ko'krak qafasining chap sohasida
og'riq yoki bezovtalik boshlandi.
Tushungan odam bunday vaziyatda
oilaviy poliklinikaga chiqadi yoki
boshqa shifoxonaga yo'l oladi. Biz
ko'pincha nima qilamiz? “Qo'lbola”
tashxis qo'yishga o'tamiz: “O'pkam
shamollagan”, “Nervdan bo'lsa
kerak”, “Buyrak pristup berdimikan”,
“Yurak ham bo'lishi mumkin”...
Yetmaganiga, uy sharoitida muolaja
ham boshlaymiz. Juda hafsala qilsak,
dorixonaga borib, “aptekachi qiz”ning

retseptini ixlos bilan qo'llaymiz.

Afsuski, bu juda xavfli. Yurakning
chin va soxta og'riqlari bo'ladi. Buni
aniqlash uchun EKG tekshiruv
bor. Eng ishonchli vosita shu.
Bitta ishonchli tekshiruv bu og'riq
yurakdanmi, asabdanmi, o'pkadanmi,
aniqlik kiritadi. Aslida, “ko'ksimizni
changallab” qolishni kutmay, yilda bir
marta bo'lsa ham EKG tekshiruvdan
o'tish tavsiya etiladi.

Bugun kasallik yosh tanlamay
qo'ydi. Oldin yurak sanchig'i 50, 60,
70 yoshda ishora bergan bo'lsa,
hozir 20 yoshdan keyin ham infarkt
alomatlarini sezilmoqda. Sababi-
ni “ekologiya buzilib ketgan”iga
yo'yish bilan cheklanamiz. Lekin
kundalik hayot tarzimiz ham bunda
asosiy “aybdor”dir. Har kuni juda
katta miqdorda kerakli-keraksiz
informatsiya qabul qilib, asab va
yurak qon-tomir tizimiga bosim
beramiz. Kam harakat qilamiz, bir
joyda o'tirib hamma ishni hal qilgimiz
keladi, ikki bekati piyoda yurishga
erinib, avtobus, metro yo avtomobilga
osilamiz. Vaqtimizni qizg'anib, to'g'ri
ovqatlanish qoidasini buzib, tez
tayyor bo'ladigan taomlar iste'mol
qilamiz. Natijada, harakatsizlik
oqibatida qon-tomir devorlarida
yuqori kaloriya to'plana boshlaydi,
qonni quyuqlashtiradi. Qarabsizki,
vaqt o'tib, “Infarkt, insult, stent qo'ydir,
shunt qo'ydir”... Xudo saqlasin!

Yurak qon-tomir kasalliklariga
chalinmaslik uchun birinchi galda
sog'lom turmush tarziga amal qilish

kerak. Ovqatlanishda kantserogen,
ikki marta qayta ishlangan mah-
sulotlar tavsiya qilinmaydi. Kunlik
ratsionimizda tabiiy mahsulotlar
ulushi oshsin. Shakar, uglevoddan
uzoqlashishni tavsiya qilaman. Yana
muhammi: me'yoridaq uyqu. Agar u
olti soatdan kam bo'lsa, infarkt xavfi
oshadi. Yurak sog'lom bo'lishi uchun
osoyishtalik, qalb xotirjamligi kerak.

Har bir inson yilda ikki marta
shifokor nazoratida bo'lishi lozim.
Qon topshirib, qonimizning qu-
yuq-suyuqligi, xolesterin, qand
miqdori, gemogloblin, jigaramiz va
buyragimizning holatini nazorat qilib
turishimiz shart.

Ba'zilarimiz oyoq-qo'li muzday
bo'ladi. Aksariyatiga sabab – yurak
yetishmovchiligi. Chunki qon yaxshi
aylanmaydi va organlarga kislorod
yaxshi yetib bormaydi.

Ruhiiy zo'riqlashdan qochish
kerak. Har kim oilasiga, ishiga bir
xil vaqt ajratsin, ayniqsa, o'ziga.
Shundaygina stresslar, ruhiy bosimlar,
yurak xastaligiga chalinish ehtimoli
kamayadi.

Bugun davrimiz odamlariga eng
kerakli muolaja – xotirjamlik. Har
qanday og'ir muammolarni chetga
surib, soatlab yolg'iz yurishga harakat
qiling. Shunda nerv hujayralari qayta
tiklanadi. Hamma narsaning yechimi,
kasalliklarning oldini olish yo'li –
halovatda.

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

Shunday og'ir bemorlar borki,
Uyalib ketasan tuzalganingdan.
Shunday yaxshi vrachlar borki,
Tuzalib ketasan uyalganingdan.

Muhammad YUSUF

TILBILIM

CHIVINMI
YO PASHSHA?

O'zbek xalqini, turfa bo'linishlardan
tashqari, yana ikki katta guruhga
bo'lish mumkin: biri chivin deb
ataydigan hasharotni ikkinchisi
pashsha deydi va pashshani
chivin. To'g'rirog'i, bir hasharotni
O'zbekistonning yarmi – pashsha,
ikkinchi yarmi – chivin deydi va
aksincha.

Ma'lumki, Toshkent shahri va viloyati,
Farg'ona vodiysidagi ba'zi shevalarda
“chivin” deganda – kichkina, qon
so'radigan hasharot, ruscha aytganda,
“komap”; “pashsha” deganda – qora,
kattaroq hasharot, ruscha aytganda,
“myxa” tushuniladi, boshqa hududlarda
esa buning teskarisi: “chivin” – bu “myxa”,
“pashsha” – “komap” (Ikki guruhdan
biriga ustunlik bermaslik maqsadida
ruscha so'zlar ham ishlatilgani uchun uzr
so'raymiz).

“Chivin” so'zining eng qadimgi ko'ri-
nishlari: “chigun”, “chibun”, “chibin” shakl-
larida bo'lib, X–XI asr obidalar: “Oltin
Yoruq” yodgorligi, Yusuf Xos Hojibning
“Qutadg'u bilig” asari orqali bizgacha
yetib kelgan. Ikkala manbada ham bu
nom hozirgi adabiy tildagi chivin (komap)
ma'nosida emas, balki viloyatlardagi
so'zlashuv tiliga oid deb qaraladi-
gan “chivin” (myxa) ma'nosida ishlatil-
gan (“Chibun boldi dushman yag'anqa
bedug” – “Chivin filga katta dushman
bo'ldi”. “Qutadg'u bilig”).

Buni qarangki, keyinchalik XIV asrda
Xorazmda yashagan adib va shoirlar ham
“chibin” (chibin) deb hozir viloyatlarda
“chivin” (“muxa”) deyiladigan qora hashar-
otni atashgan ekan. Bunga atoqli olim
Ergash Fozilov o'zining “Староузбекс-
кий язык. Хорезмийские памятники XIV
века” kitobida qator misollar keltiradi.
O'sha davrda Xorazmda yashagan shoir
Qutbning “Xisrav va Shirin” dostonida bu

so'z shunday qo'llangan: “Chibinsiz bolsa
sāfuraq bal”– ma'nos: “Bol chivinsiz (be3
myx) bo'lsa, sofroq bo'ladi”.

Navoiy bobomiz ham “chibin” deganda
hozirgi adabiy tilimizdagi chivinni emas,
balki olis o'tmishda ajdodlarimiz bu nom
bilan qaysi hasharotni atashgan bo'lsa,
xuddi o'shani tushungan. Xususan, “Saddi
Iskandariy” dostonida Navoiy aylanuvchi
falak, ya'ni osmonni tegirmon uyiga, Zuhul
(Saturn) sayyorasini o'sha uydagi qora
chiviga o'xshatadi:

Qaro yuz bila charxi gardunnishin,
Nechukkim, xaros uyi ichra chibin.

Ilmi nujumda ilgari Zuhul – yomonlik,
nahs keltiruvchi, qora sayyora, deb
hisoblangan.

Shuningdek, Navoiy qora emas, ko'k
rangli chivinni “oltunlug' chibin” deb
ataydi.

Shu o'rinda bu hasharot (myxa) qardosh
tillarda qanday atalishiga e'tibor bersak:
qozoqcha: *shibin*; turkmancha: *cybyn*;
uyg'urcha: *chivin*; qirg'izcha: *chim*; tatar-
cha: cheben; boshqirdcha: seben. Ya'ni,
aksariyat turkiy xalqlar “chivin” deb
ataydigan hasharot faqat o'zbek adabiy
tilida “pashsha”ga aylanib qolgan.

“Pashsha” esa fors tilidan o'zlashgan
bo'lib, Shavkat Rahmatullayev o'zining
“O'zbek tilining etimologik lug'ati” III
tomida unga shunday izoh beradi:
“Pashsha forsha, tojikcha lug'atlarda:
“qo'sh parda qanotli, uzun mo'ylovli, tanasi
ingichka, qon so'ruvchi mayda hasharot
(chivin)” ma'nosini anglatishi aytilgan.
Alqissa, narsani o'z nomi bilan atab,
“chivin”ni ajdodlarimiz, qardoshlarimiz
o'tmishda va bugun qaysi hasharotga
nisbatan qo'llagan va qo'llayotgan bo'lsa,
shunday qo'llasak, pashshani ham asliyati
ma'nosiga moslasak, tilimiz bir qusuridan
qutulgan bo'lur edi.

Abduvohid HAYIT

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASIRESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASIMILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDIBosh muharrir:
Iqbol MirzoMas'ul kotib:
Shuhrat AzizovNavbatchi muharrir:
Gulchehra UmarovaSahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora ToshevaMuallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 731

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 101

Lotin yozuvida – 11 630

Media kuzatuvchilar – 72 206

Buyurtma: G – 1240.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz